Таким образом, полученные данные свидетельствуют о факте последствий перенесенного хронического сепсиса, когда даже в условиях ликвидации генерализации инфекции продукция IgA продолжается с заполнением ими раневой поверхности.

Концентрация IgM в смывах поверхности ДНЗР среди больных первой подгруппы была в 5,5 раза выше, чем среди больных второй подгруппы ($p < 0,05$). Как и в предыдущем случае в динамике уже на 7-сутки проведенного традиционного лечения концентрация IgM в смывах поверхности ДНЗР среди больных первой подгруппы повышалась в 1,7 раза ($p < 0,05$), а среди больных второй подгруппы – в 2,6 раза ($p < 0,05$). При этом разница в продукции IgM среди больных первой и второй подгруппы составила 3,5 раза ($p < 0,05$), что было менее выражено чем на исходном уровне.

На 14-сутки проводимого лечения концентрация IgM в смывах поверхности раны среди больных первой подгруппы снижалась с $20,6 \pm 4,2$ мкг/мл до $10,4 \pm 2,8$ мкг/мл, то есть почти в 2 раза ($p < 0,05$). Среди больных второй подгруппы нами так же было отмечено снижение концентрации IgM в смывах поверхности раны с $5,8 \pm 0,7$ мкг/мл до $4,9 \pm 0,2$ мкг/мл ($p > 0,05$). Разница в концентрации данного иммуноглобулина между больными первой и второй подгруппы в данный срок составила 2,1 раза ($p < 0,05$).

Таким образом, ранний период проведенного лечения характеризовался волнообразным изменением концентрации IgM как среди больных первой, так и второй подгрупп. При этом в случае наличия генерализации инфекции изменения проявлялись незначительно.

В отдаленные сроки проведенного традиционного лечения среди больных первой подгруппы концентрация IgM в ДНЗР выявлялась нами лишь в единичных случаях и очень низких концентрация по сравнению с предыдущими сроками исследования (от 1,1 мкг/мл до 1,9 мкг/мл) составив в среднем $1,5 \pm 0,4$ мкг/мл и $1,3 \pm 0,2$ мкг/мл соответственно. При этом среди больных второй подгруппы изменения носили недостоверный характер и колебались в пределах от 4,3 мкг/мл до 5,9 мкг/мл составив в среднем $5,1 \pm 0,8$ мкг/мл и $4,8 \pm 0,5$ мкг/мл соответственно.

Таким образом, при наличии исходно низкой продукции IgM в раневой поверхности больных с генерализацией инфекции концентрация данного иммуноглобулина лишь нарастает, что, по-видимому, было связано с особенностями проявления общего заболевания. При этом, в случаях отсутствия генерализации инфекции и при условии благоприятного исхода заболевания продукция IgM снижается.

Концентрация лизоцима на поверхности ДНЗР была незначительной ($1,84 \pm 0,33$ мкг/мл) и в основном была представлена за счет больных первой подгруппы ($2,56 \pm 0,58$ мкг/мл) чем второй ($1,11 \pm 0,08$ мкг/мл).

В ранние сроки проведения лечения раны концентрация лизоцима в ране постепенно повышалось до $2,62 \pm 0,35$ мкг/мл на 7-сутки и до $2,99 \pm 0,34$ мкг/мл на 14-сутки исследования. При этом в обоих случаях львиная доля концентрации лизоцима в ране была представлена больными первой подгруппы, превышая значения больных в 1,5 ($p < 0,05$) и в 2,4 раза ($p < 0,05$) соответственно.

В последующие, отдаленные сроки проводимого лечения концентрация лизоцима в ДНЗР постепенно снижалось до $2,23 \pm 0,29$ мкг/мл на 28-сутки и до $1,55 \pm 0,24$ мкг/мл ($p < 0,05$) в последующие сроки. Однако, в отличие от ранних сроков исследования, в данный период основным удельным весом лизоцима выступали больные второй подгруппы. Более высокие концентрации лизоцима, в 1,5 раза ($p < 0,05$) и в 2,2 раза ($p < 0,05$) в смывах ДНЗР у больных второй подгруппы была связана с длительным периодом генерализации инфекции.

Таким образом, концентрация лизоцима в ДНЗР характеризуется изменением динамики в зависимости от наличия генерализации инфекции в виде повышения продукции более чем исходного значения. Такие изменения в концентрации лизоцима напрямую связаны с наличием генерализации инфекции и могут быть

использованы при прогнозировании течения воспалительного процесса у больных с ДНЗР.

ВЫВОДЫ:

1. Динамика изменения количества макрофагов в отпечатках поверхности ДНЗР характеризуется присутствием данных клеток на всем протяжении проведенного лечения, при чем в случаях отсутствия генерализации инфекции характерным является увеличение их местной экспрессии.
2. Ранний период проведенного лечения характеризовался волнообразным изменением концентрации IgM как среди больных первой, так и второй подгрупп. При этом в случае наличия генерализации инфекции изменения проявлялись незначительно.
3. При наличии исходно низкой продукции IgM в раневой поверхности больных с генерализацией инфекции концентрация данного иммуноглобулина лишь нарастает, что, по-видимому, было связано с особенностями проявления общего заболевания. При этом, в случаях отсутствия генерализации инфекции и при условии благоприятного исхода заболевания продукция IgM снижается.
4. Концентрация лизоцима в ДНЗР характеризуется изменением динамики в зависимости от наличия генерализации инфекции в виде повышения продукции более чем исходного значения. Такие изменения в концентрации лизоцима напрямую связаны с наличием генерализации инфекции и могут быть использованы при прогнозировании течения воспалительного процесса у больных с ДНЗР.

Литература

1. Храмилин В.Н. Современные аспекты местного лечения хронических ран нижних конечностей у больных сахарным диабетом. // Научно- практический медицинский журнал ЭНЦ РАМН.2015;4:26-30.
2. Stone R.C. A bioengineered living cell construct activates an acute wound healing response in venous leg ulcers. // Sci. Transl. Med.2017;9(371):eaaf8611.
3. Burden of venous leg ulcers in the United States. / J.B. Rice, U. Desai, A.K. Cummings, et al. // J. Med. Econ. 2014;17:347-356.
4. Driscoll P. Wound prevalence and wound management, 2012–2020. 2013. // Accessed on 14 September 2015. Available online: <http://blog.mediligence.com/2013/01/29/wound-prevalence-and-wound-management-2012-2020/>
5. Garraud O., Hozzein W.N., Badr G. Wound healing: Time to look for intelligent, “natural” immunological approaches? // BMC Immunol.2020;(18):23.

6. An economic evaluation of the impact, cost, and medicare policy implications of chronic nonhealing wounds. / S.R. Nussbaum, M.J. Carter, C.E. Fife, et al. // *Value Health*.2018;21:27–32.
7. The humanistic and economic burden of chronic wounds: A systematic review. / M. Olsson, K. Jarbrink, U. Divakar, et al. // *Wound Repair. Regen*.2019;27:114–125.
8. Skin wound healing process and new emerging technologies for skin wound care and regeneration. / E.M. Tottoli, R. Dorati, I. Genta, et al. // *Pharmaceutics*. 2020;12:735.
9. Immune regulation of skin wound healing: Mechanisms and novel therapeutic targets. / J. Larouche, S. Sheoran, K. Maruyama, et al. // *Adv. Wound Care*.2018;7:209–231.
10. Khamdamova M.T., Akramova D. E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
11. Khamdamova M.T., Teshayev Sh.Zh., Hikmatova M.F. Morphological changes of the thymus and spleen in renal failure in rats and correction with pomegranate seed oil // *New day in medicine*. Bukhara, 2024. - N. 3(65). - P. 167-187.
12. Khamdamova M. T. The state of local immunity in background diseases of the cervix // *Eurasian journal of medical and natural sciences Innovative Academy Research Support Center*. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-287X R.171-175.
13. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // *New day in medicine*. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.
14. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 39-45.
15. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 33-38.
16. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
17. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-

containing intrauterine device // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - P. 2-7.

18. Khamdamova M. T. Bleeding when wearing intrauterine contraceptives and their relationship with the nitric oxide system // *American journal of pediatric medicine and health sciences* Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): P. 2993-2149. R.58-62

19. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 39-45.

20. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 33-38.

21. Mesenchymal stem cells for chronic wound healing: Current status of preclinical and clinical studies. / Y.Z. Huang, M. Gou, L.C. Da, et al. // *Tissue Eng. Part B*. Rev.2020;26:555–570.

22. Goldberg S.R., Diegelmann R.F. What makes wounds chronic. // *Surg. Clin. New Am.*2020;100:681–693.

23. Matrix metalloproteinases (MMPs) and diabetic foot: Pathophysiological findings and recent developments in their inhibitors of natural as well as synthetic origin. In *The Eye and Foot in Diabetes*. / K. Kaur, A. Singh, S. Attri, et al. // Intech. Open: London, UK, 2020.

24. Validation of matrix metalloproteinase-9 (MMP-9) as a novel target for the treatment of diabetic foot ulcers in humans and discovery of a potent and selective small-molecule MMP-9 inhibitor that accelerates healing. / T.T. Nguyen, D. Ding, W.R. Wolter, et al. // *J. Med. Chem.* 2018;61:8825–8837.

25. High glucose activates ERK1/2 to stabilize AP1 and increase MMP9 expression in diabetic foot ulcers. / J. Lang, C. Yang, L. Liu, et al. // *Exp. Cell Res.* 2021;112550.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDAGI QONUNCHILIK VA HUQUQIY ASOSLAR

Alimov Sirojiddin Rustam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" magistratura yo'nalishi tinglovchisi

kibleeramail.ru@gmail.com

Annotatsiya: Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi qonunchilik va huquqiy asoslar - axborot texnologiyalari sohasidagi huquqiy tizimning shakllanishi va rivojlanishini o'rganadi. Ushbu ilmiy maqolada axborot texnologiyalarining jamiyatdagi o'rni va ularga bog'liq qonun hujjatlarining tahlili amalga oshiriladi. Asosiy e'tibor axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetda qonuniy faoliyatni nazorat qilish, va axborot texnologiyalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan huquqiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunlar va normativ hujjatlarni ko'rib chiqishga qaratilgan. Ushbu ishda axborot texnologiyalari sohasida qo'llaniladigan xalqaro standartlar hamda mahalliy qonunchilikni taqqoslash o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, qonunchilik, huquqiy asoslar, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, internet faoliyati, xalqaro standartlar, huquqiy muammolar, normativ hujjatlar

Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jahon miqyosida keng qo'llanilishi jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ular nafaqat iqtisodiyot, balki ta'lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan birga, ularni ishlatish va boshqarishdagi huquqiy muammolar ham ortib bormoqda. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, internetdagi huquqiy faoliyat va ko'plab boshqa masalalar, ayniqsa zamonaviy qonunchilik tizimlarida yangi yondoshuvlar va normativ hujjatlarni yaratishni taqozo etmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari davlat va xalqaro darajada o'zgarib borayotgan qonunlarga asoslanadi. Shuning uchun axborot texnologiyalarini boshqarish va qo'llashda, mamlakatlar o'rtasida normativ hujjatlar va qonunlarni uyg'unlashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu ilmiy ishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi qonunchilik va huquqiy asoslar o'rganiladi. Mazkur ishda axborot

texnologiyalarining jamiyatdagi o'rni, ularning huquqiy doirasi va mavjud qonunlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari sohasida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar va ularni hal qilish uchun mavjud qonun hujjatlari va xalqaro standartlar ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi, axborot texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanish uchun zarur bo'lgan qonunchilik va huquqiy asoslarni aniqlash, shuningdek, bu sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun yuridik yondoshuvlarni taklif etishdir.

Mavzuning dolzarbligi

Axborot texnologiyalarining so'nggi yillarda jadal rivojlanishi va ularning hayotimizning barcha jabhalariga ta'sir etishi dunyo miqyosida yangi huquqiy va etik masalalarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish, bir tomondan, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shsa, boshqa tomondan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, kiberjinoyatlarni oldini olish kabi masalalarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu soha bilan bog'liq huquqiy asoslar va qonunlarni ishlab chiqish zaruriyati, ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi qonunchilik va huquqiy asoslar mavzusining dolzarbligi, shuningdek, butun dunyo bo'ylab raqamli muhitda ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Axborot texnologiyalariga oid xalqaro va milliy qonunlar o'rtasidagi moslik va uyg'unlikni ta'minlash, ularni tartibga solish va xavfsiz foydalanish uchun zarur huquqiy ramkalarni yaratish masalasi dolzarbdir. Bu, ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot texnologiyalarining samarali va xavfsiz ishlatilishiga erishish uchun muhimdir. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va internetdagi faoliyatning cheksiz va global tabiatiga qarshi samarali qonunchilikni yaratish har bir mamlakatda alohida qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik va boshqa axborot texnologiyalariga oid huquqiy muammolarning yechimi davlat va xalqaro miqyosda doimiy ravishda yangilanayotgan qonunlarni talab etadi. Shuning uchun mazkur mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham juda dolzarb va muhim hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari - Mazkur tadqiqotda asosiy materiallar sifatida quyidagi manbalar foydalaniladi:

1. Qonun hujjatlari va normativ hujjatlar: Mamlakatdagi axborot texnologiyalariga oid qonunlar, qarorlar, nizomlar, huquqiy aktlar va xalqaro hujjatlar.

2. Akademik adabiyotlar: Axborot texnologiyalarining huquqiy aspektlari bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar va tahliliy ishlar. Ushbu materiallar axborot texnologiyalari va huquqiy tizimlarni tahlil qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.
3. Statistika ma'lumotlar: Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik, internetda qonuniy faoliyat va boshqa tegishli masalalar bo'yicha statistik tahlillar va hisobotlar.
4. Xalqaro huquqiy standartlar: Axborot texnologiyalariga oid xalqaro standartlar, xususan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberjinoyatlar bilan bog'liq normativ hujjatlar.
5. Amaliy tadqiqotlar: Axborot texnologiyalarini qo'llash va ularning huquqiy jihatlari bo'yicha yuridik firmalar, davlat idoralari va tashkilotlar tomonidan olib borilgan amaliy tadqiqotlar va tajribalar.

Metodologiya - Tadqiqotda quyidagi metodologik yondoshuvlar qo'llaniladi:

1. Huquqiy tahlil: Axborot texnologiyalari bilan bog'liq qonun hujjatlarining tahlili va ularning amaldagi holati o'rganiladi. Bu metod yordamida, huquqiy normativ hujjatlarning samaradorligi va kamchiliklari aniqlanadi.
2. Taqqoslash metodologiyasi: Mahalliy va xalqaro qonunchilik tizimlarini taqqoslash usuli qo'llaniladi. Bu orqali axborot texnologiyalariga oid qonunlarning davlatlar o'rtasidagi farqlarini va ularning mosligini aniqlash mumkin.
3. Statistika tahlil: Axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'sish tendensiyasi va kiberxavfsizlikka oid statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida texnologik o'zgarishlarning huquqiy asoslarga ta'siri o'rganiladi.
4. Kasbiy ekspertiza: Axborot texnologiyalari va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olgan amaliyotlar va yuridik ekspertlar bilan intervyular yordamida materiallar to'planadi. Ekspertlarning fikrlari tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy yondoshuvlarni shakllantiradi.
5. Normativ hujjatlarni o'rganish: Axborot texnologiyalariga oid normativ hujjatlarni va yuridik aktlarni o'rganish, ularning amaldagi qonunchilikka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun normativ hujjatlarni tizimli tahlil qilish metodidan foydalaniladi.
6. Empirik tadqiqot: Axborot texnologiyalarining huquqiy aspektlarini amalda o'rganish maqsadida turli davlatlar va tashkilotlar tajribasiga asoslangan empirik tadqiqotlar o'tkaziladi.

Ushbu metodologiya yordamida axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi huquqiy asoslarni chuqur o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot muhokamasi: Axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy jihatlarini o'rganish jarayonida bir nechta muhim muammolar va dolzarb masalalar paydo bo'ladi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan axborot texnologiyalarining huquqiy asoslari va qonunchilik tizimi, shuningdek, bu sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlar va metodologiyalar haqida quyidagi asosiy nuqtalar muhokama qilinadi. **Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi:** Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanishning eng katta muammolaridan biri – axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasidir. Internetda har kuni yuz minglab shaxsiy ma'lumotlar to'planadi va ulardan noqonuniy foydalanish holatlari kuzatiladi. Ko'plab davlatlar axborot xavfsizligini ta'minlash uchun qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqishmoqda, lekin bu qonunlarning samaradorligi hali ham cheklangan. Tadqiqotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarni oldini olish bo'yicha mavjud qonunlarning tahlili amalga oshiriladi, va bu sohada global darajada yangi normativ hujjatlar talab etilishi muhokama qilinadi; **Kiberjinoyatlar va internetda qonuniy faoliyat:** Internetda sodir etiladigan jinoyatlar (kiberjinoyatlar) soni ortib bormoqda. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqiy normativlar yaratish va amaldagi qonunlarni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Tadqiqotda kiberjinoyatlar bilan bog'liq qonunlar va ularning samaradorligi o'rganiladi, shuningdek, kiberjinoyatlar haqida xalqaro va milliy darajada huquqiy standartlar muhokama qilinadi; **Xalqaro huquqiy standartlar va ularning amaliy qo'llanilishi:** Axborot texnologiyalarining global xarakteri tufayli, har bir davlatning axborot texnologiyalariga oid qonunchiligi ko'plab xalqaro standartlarga mos bo'lishi kerak. Tadqiqotda, xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Evropaning umumiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha GDPR (General Data Protection Regulation) kabi huquqiy normativlari o'rganiladi. Shu bilan birga, mamlakatlar o'rtasida qonunlar va standartlar o'rtasidagi farqlar, shuningdek, axborot texnologiyalarini tartibga solishdagi xalqaro hamkorlik masalalari muhokama qilinadi; **Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot:** Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, raqamli iqtisodiyotning o'sishi ham tezlashmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalarining roli, raqamli tovarlar va xizmatlarga oid qonunlar, onlayn savdo va elektron tijoratga oid huquqiy masalalar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotda xalqaro hamkorlik va qonunlar uyg'unligini

ta'minlash uchun zarur bo'lgan yuridik chora-tadbirlar tahlil qilinadi; **Axborot texnologiyalarining jamiyatdagi ijtimoiy ta'siri:** Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ijtimoiy tizimlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda, axborot texnologiyalarining tarqalishi bilan bog'liq ijtimoiy tengsizlik va ta'lim tizimiga ta'siri muhokama qilinadi. Tadqiqotda, bu texnologiyalarni samarali va adolatli ravishda qo'llash uchun huquqiy asoslar yaratish zarurati va ularning ijtimoiy ta'sirlarini kamaytirishga qaratilgan qonuniy chora-tadbirlar muhokama qilinadi; **Qonunchilikdagi kamchiliklar va takliflar:** Tadqiqot davomida, axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Bu yerda, axborot texnologiyalarini boshqarish uchun yangi qonunlar, normativ hujjatlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritiladi. Shuningdek, huquqiy tizimlarning yangilanishi va texnologik rivojlanishning talablariga moslashishi uchun kerakli yuridik reformalar taklif etiladi. Tadqiqotning muhokamasi, axborot texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanish, shuningdek, ularning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ta'sirini kamaytirish uchun zarur bo'lgan huquqiy yondoshuvlarni belgilashga qaratilgan.

Xulosa

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy jamiyatda keng qamrovli o'zgarishlarga olib keldi va bu texnologiyalarni qo'llashda yuzaga keladigan huquqiy masalalar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqotda axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri, shuningdek, kiberjinoyatlar va axborot xavfsizligi kabi masalalar chuqur tahlil qilindi. Axborot texnologiyalariga oid mavjud qonun hujjatlari va normativ hujjatlar amaldagi ehtiyojlarga to'liq javob bera olmasligi, ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberjinoyatlar va internetda qonuniy faoliyatni tartibga solish masalalarida kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqotda axborot texnologiyalarini boshqarish va tartibga solish uchun kerakli normativ hujjatlar va xalqaro huquqiy standartlar taqqoslandi. Xalqaro tajribalar, ayniqsa, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunlar, hamda raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning huquqiy asoslari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlandi. Tadqiqotda keltirilgan takliflarga ko'ra, axborot texnologiyalari sohasida mavjud qonunchilikni yangilash va xalqaro huquqiy tizim bilan integratsiyalashni kuchaytirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va

raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi huquqiy to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Umuman olganda, axborot texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanish uchun zamonaviy huquqiy asoslar va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, hamda jamiyatning raqamli o'zgarishlarga tayyorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axborot texnologiyalari va huquq: K. A. Tashkenbaev, "Axborot texnologiyalari va huquqiy asoslar", Toshkent, 2022.
2. Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi: J. X. Murodov, "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: huquqiy yondoshuvlar", Toshkent, 2021.
3. Axborot xavfsizligi: R. R. Rasulov, "Axborot xavfsizligini ta'minlashda huquqiy va texnik choralar", Toshkent, 2020.
4. Xalqaro huquqiy normativlar: A. M. Davronov, "Xalqaro axborot xavfsizligi standartlari", Toshkent, 2023.
5. Kiberjinoyatlar va qonunchilik: Z. N. Ismailova, "Kiberjinoyatlarni tartibga solish: xalqaro va milliy qonunchilik", Toshkent, 2022.
6. Raqamli iqtisodiyot va huquq: I. M. Abdurahmonov, "Raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalarining roli", Tashkent, 2021.
7. Internetda qonuniy faoliyat: V. N. Usmonov, "Internetda qonuniy faoliyat: huquqiy tahlil", Toshkent, 2020.
8. Axborot texnologiyalari va jamiyat: L. N. Azizov, "Axborot texnologiyalarining jamiyatga ta'siri", Toshkent, 2019.
9. Global axborot xavfsizligi va kiberhuquq: M. P. Smirnov, "Global axborot xavfsizligi va kiberhuquq: xalqaro tajriba", Moskva, 2021.
10. Qonunchilikdagi yangiliklar va innovatsiyalar: S. I. Fozilov, "Axborot texnologiyalarini boshqarishdagi qonunchilikdagi yangiliklar", Toshkent, 2022.
11. Makhmudov, E. A. (2020). *Internet va raqamli iqtisodiyot: huquqiy tahlil*. Toshkent: "Legal Insight".
12. G'ulomov, F. X. (2021). *Kiberxavfsizlik va uning huquqiy asoslardagi o'rni*. Toshkent: "TechLaw".
13. Jumanazarov, A. T. (2022). *Axborot texnologiyalari va qonunlar: xalqaro tajriba*. Toshkent: "TechnoLaw".
14. Rahimov, B. M. (2021). *Yuridik amaliyotda axborot texnologiyalarining roli*. Toshkent: "Ijtimoiy- huquqiy tadqiqotlar" nashriyoti.

ODAM ORGANIZMIDA KALSIY VA MAGNIY MIKROELEMENTLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Xudoyberdiyeva Muhayyo

xudoyberdiyevamuhayyo@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti

Annotatsiya Odam organizmida kalsiy va magniy o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim biologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mikroelementlar bir-birini to'ldiruvchi rol o'ynab, hujayra faoliyatini, mushaklar va nerv tizimini muvozanatda saqlashga yordam beradi. Ular ko'plab hayotiy jarayonlarda birgalikda ishlaydi.

Ushbu maqolada kalsiy va magniyning o'zaro bog'liqligi odam organizmining turli funksiyalariga bevosita ta'sir qilishi va ular birgalikda ishlashi orqali suyaklar mustahkamligini, mushak va nerv tizimining to'g'ri ishlashini, yurak faoliyatini va qon bosimini boshqarilishi haqida malumat berilgan.

Abstract: The relationship between calcium and magnesium in the human body affects important biological processes. These microelements play a complementary role and help to maintain the balance of cell activity, muscle and nervous system. They work together in many vital processes. In this article, information is provided that the interdependence of calcium and magnesium directly affects various functions of the human body, and through their joint work, bone strength, proper functioning of the muscles and nervous system, heart activity, and blood pressure are controlled.

Аннотация: Взаимосвязь между кальцием и магнием в организме человека влияет на важные биологические процессы. Эти микроэлементы играют взаимодополняющую роль и помогают поддерживать баланс активности клеток, мышц и нервной системы. Они работают вместе во многих жизненно важных процессах. В данной статье представлена информация о том, что взаимозависимость кальция и магния напрямую влияет на различные функции организма человека, и посредством их совместной работы контролируется прочность костей, правильное функционирование мышц и нервной системы, сердечная деятельность и артериальное давление.

Kalit so'zlar: Magniy, kalsiy, yurak ritmi, yurak, qon tomir, stress, suyak va tishlar salomatligi, spazm, krapm, gipertoniya, metabolism, fermentlar, nerv tizimi.

Key words: Magnesium, calcium, heart rhythm, heart, vascular, stress, health of bones and teeth, spasm, croup, hypertension, metabolism, enzymes, nervous system.

Ключевые слова: Магний, кальций, сердечный ритм, сердце, сосуды, стресс, здоровье костей и зубов, спазмы, круп, гипертония, обмен веществ, ферменты, нервная система.

Kirish.Kalsiy va magniy tanada bir-birini muvozanatga keltirib turadi.Kalsiy-mushaklarning qisqarishini boshqaradi, nerv impulslarini uzatadi va suyaklarning mustahkamligini ta'minlaydi.Magniy-mushaklarning bo'shashishini ta'minlaydi, nerv tizimining tinchlanishiga yordam beradi va kalsiyning hujayralarga to'g'ri kirib-chiqishini boshqaradi.

Kalsiy va magniy tanada bir-birini muvozanatga keltiradi:

- Kalsiy mushak qisqarishiga sabab bo'lsa, magniy bo'shashishini ta'minlaydi.
- Magniy kalsiyning to'g'ri metabolizmida ishtirok etadi. Agar magniy yetishmasa, kalsiyning hujayra ichidagi konsentratsiyasi ortib, mushaklarning haddan tashqari qisqarishi (spazmlar) yuzaga kelishi mumkin.

Metodologiya.

Biologik namunalar (qon, siydik, soch, yoki boshqa to'qimalar)dan foydalanib, ushbu minerallarning miqdorini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon uchun maxsus ilmiy metodlar qo'llaniladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadini belgilash kerak:

- Kalsiy va magniyning umumiy darajasini aniqlash.
- Ushbu mikroelementlarning tanadagi muvozanatini baholash.
- Kasalliklar (masalan, osteoporoz, gipomagnezemiya, giperkalsemiya) diagnostikasi va oldini olish kabi jarayonlar o'rganiladi.

Ma'lumot yig'ish jarayoni

Hozirgi kunda kalsiy va magniyning organizmga bog'liqligini yoki organizmdagi kasalliklarini bilish oson emas.Chunki ko'plab kasalliklar shu kalsiy va magniy bilan bog'liq.

Kalsiyning fiziologiyasi

- Kalsiy suyak to'qimasining asosiy komponentidir va suyaklarda minerallashuv jarayonida ishtirok etadi.

1. Mushak qisqarishi

- Kalsiy mushak qisqarishi va bo'shashish jarayonida muhim rol o'ynaydi.
- Mushak to'qimasiga kalsiy ionlari kirganida qisqarish boshlanadi, chiqarilganda esa mushak bo'shashadi.

2. Nerv impulsini uzatish

- Kalsiy nerv hujayralarida impulsni uzatishga yordam beradi.
- Neyrotransmitterlar (masalan, asetilxolin) ajralishi uchun kalsiy ionlari kerak.

3. Qonning ivishi

- Kalsiy qon ivishi jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Bu protrombinning trombinga aylanishi uchun zarurdir.

4. Gormonlar va fermentlar faollashuvi

- Kalsiy ba'zi fermentlarning faollashuvini va gormonlarning sekretsiyasini boshqaradi.

Magniyning fiziologiyasi

1. Energiya ishlab chiqarish (ATP sintezi)

- Magniy hujayralarda energiya ishlab chiqaruvchi jarayonlarda ishtirok etadi, chunki ATP (adenozin trifosfat) magniysiz faollasha olmaganligi uchun.

2. Mushak va nerv tizimi

- Magniy mushaklarning bo'shashishini ta'minlaydi va nerv impulsini boshqarishda ishtirok etadi.
- Kalsiy mushak qisqarishini ta'minlasa, magniy mushakni bo'shashtiradi, shu bilan muvozanatni ta'minlab turadi.

3. Yurak faoliyati

- Yurakning ritmik qisqarishini boshqarishda magniy muhim ahamiyatga ega.

- Yurak hujayralarining kalsiy ionlariga javobini tartibga soladi, yurak aritmiyalarining oldini oladi.

4. DNK va RNK sintezi

- Magniy DNK va RNK sintezida muhim rol o'ynaydi, bu hujayra bo'linishi va o'sishi uchun juda zarurdir. Laboratoriya tahlili

Kalsiy va magniyning laboratoriya tahlillari

odam organizmida bu minerallarning holatini va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun muhimdir. Ushbu minerallarning qondagi darajasi organizmning sog'lom ishlashini ta'minlash uchun juda muhim bo'lib, ko'plab kasalliklarning diagnostikasida yordam beradi.

1. Kalsiy (Ca) darajasi:

- Umumiy kalsiy (Total Calcium): Qonda kalsiyning umumiy miqdorini o'lchaydi. Bu oqsilga bog'langan va erkin (ionlashgan) kalsiyni o'z ichiga oladi.

- Normasi: 2.1–2.6 mmol/L (8.5–10.2 mg/dL).

- Ionlashgan kalsiy (Ionized Calcium): Faqat faol, erkin kalsiy ionlari miqdorini o'lchaydi.

- Normasi: 1.1–1.3 mmol/L.

2. Magniy (Mg) darajasi:

- Umumiy magniy (Total Magnesium): Qondagi magniy ionlarining umumiy konsentratsiyasi.

- Normasi: 0.75–1.0 mmol/L (1.8–2.4 mg/dL).

Metodik asoslar va olimlarning fikrlari.

- Kalsiy va magniy balansining buzilishi natijasida yuzaga keladigan patologik holatlar (osteoporoz, gipokalsemiya, gipomagnezemiya)ni o'rganish muhim hisoblanadi.

- E. M. Brown (1995): Kalsiy-sezgir retseptorlar (CaSR) hujayralar yuzasida joylashgan bo'lib, qon zardobidagi kalsiy darajasini nazorat qiladi. Magniy ushbu retseptorlarning faollashuviga ta'sir ko'rsatishi mumkin deb o'z fikrini aytgan.

- Holtrop va Brown (1982): Magniy yetishmovchiligi PTH sekretsiyasini kamaytiradi, bu esa gipokalsemiyaga olib kelgan.

2. Suyak salomatligi

- Heaney (2001): Kalsiy va magniy suyaklarning minerallashuvi uchun asosiy komponentlardir. Magniy yetishmovchiligi kalsiy metabolizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa osteoporoz xavfini oshirgan.

- Nielsen (2004): Magniy suyak zichligini oshiruvchi omil bo'lib, kalsiy bilan sinergik (birgalikdagi) ta'sir ko'rsatadi deb aytgan.


Labaratoriya natijasi.

- Normal holat: Kalsiy va magniy darajalari normada bo'lsa, organizmda bu minerallarning muvozanati saqlangan hisoblanadi.

- Disbalans: Agar kalsiy yoki magniy darajasi normaldan chetga chiqsa, bu metabolik kasalliklarni, buyrak yetishmovchiligini yoki oziq-ovqatdan minerallarni noto'g'ri qabul qilishni ko'rsatishi mumkin.

Laboratoriya natijalarini to'g'ri baholash uchun klinik belgilarga va boshqa tahlillar natijalariga e'tibor beriladi. Shifokor kerakli davolash va mineral balansini tiklash choralarini belgilaydi.

Umumiy natija.



Kalsiy va magniy organizm uchun juda muhim mikroelement ekanligi ma'lum bo'ldi. Nerv tizimi, yurak ritmi, qon aylanish sistemasida ham magniy va kalsiyning ro'li katta. Kalsiy va magniy organizmda bir xil meyorda bo'lishi kerak. Kalsiy ko'p magniy kam bo'lsa ham kasallik ya'ni patologiya yuzaga keladi ekan. Kalsiy va magniy o'zaro muvozanatda bo'lganda, organizmning barcha tizimlari samarali ishlaydi. Kalsiy va magniy yetishmovchiligi suyaklarning mo'rtlashishi, mushak spazmlari, asabiylik va qon bosimi muammolariga olib kelishi mumkin. Sog'lom ovqatlanish orqali ushbu mikroelementlarni tabiiy manbalardan olish muhimdir. Sog'lom hayot tarzi uchun ularning kundalik ehtiyojini qondirish va me'yorini saqlash zarur.

1. Kalsiy va magniy organizm uchun muhim mikroelementlardir.

Ular suyaklarning mustahkamligi, mushaklar faoliyati, asab tizimi va qon bosimini boshqarishda asosiy rol o'ynaydi.

2. Muvozanat zarur:

Ushbu elementlarning balansli qabul qilinishi sog'lom fiziologik jarayonlar uchun muhim.

3. Yetishmovchilik oqibatlarini:

Kalsiy yoki magniyni tanqisligi suyak mo'rtlashuvi, mushak spazmlari, qon bosimi muammolari va boshqa sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

4. Tabiiy manbalar:

Sog'lom ovqatlanish orqali kalsiy va magniyni sut mahsulotlari, yashil sabzavotlar, yong'oqlar va don mahsulotlaridan qabul qilish tavsiya etiladi.

5. Sog'lom hayot uchun asos:

Ushbu elementlarning yetarli miqdorda qabul qilinishi umumiy salomatlikni saqlash uchun zarurdir.

Xulosa.

Bunday natijalarni ko'rib xulosa qiladigan bo'lsak, organizm uchun barcha element zarur ekan.

Kalsiy va magniy birgalikda organizmning asosiy tizimlarini barqaror ishlashini ta'minlaydi. Ularning balansidagi buzilish suyak, yurak-qon tomir va asab tizimi

kasalliklariga olib keladi. Sog'liqni saqlash uchun ushbu minerallarning yetarli darajada qabul qilinishini ta'minlash muhimdir. Shu sababli, muvozanatli ovqatlanish va kerak bo'lsa, qo'shimchalarni shifokor nazorati ostida qabul qilish tavsiya etiladi. Odam organizmida kalsiy va magniy sog'lom suyaklar, mushaklar, asab tizimi va boshqa muhim jarayonlar uchun zarur mikroelementlardir. Kalsiy suyaklar va qon ivishi uchun muhim bo'lsa, magniy energiya ishlab chiqarish va mushaklarning bo'shashishida asosiy rol o'ynaydi. Ularning muvozanati organizm faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi. Kundalik ovqatlanishda ushbu elementlarning yetarli darajada qabul qilinishi sog'lom hayot uchun juda muhim.

Olimlar ushbu minerallarning tibbiy va biologik ahamiyatini doimiy o'rganishda davom etmoqdalar. Bu esa diagnostika va davolash sohasida muhim yutuqlarni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov.F.X. Inoyatova, A.N.Aripov Biologik kimyo.
2. Y.F Mahmudov.Tabobatda kimyo va biologiya.
- 3.S.Masharipov.Tibbiy kimyo 2018
4. Odam fiziologiyasi (E .Nuriddinov)
5. N.T. Alimxodjayeva, X.S. Tadjiyeva Z.A.Ikramova, G.G. Suleymanova. Tibbiy kimyo 2019
- 6.A.D .Djurayev,U.A.Baltabayev.Tibbiy kimyo 2018
7. O.T.Alyaviya,SH.Q.Qodirov,A.A.Nishanova. Fiziologiya.
8. Babskiy.Odam fiziologiyasi

**GERPES VIRUSI VA BU VIRUSNING INSON ORGANIZMIDA YUZAGA
KELTIRADIGAN SALBIY OQIBATLARI. GERPETIK
ENSEFALOPATIYALAR****Rajabaliyeva Mohruhsor Amandullo qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Tibbiyot fakulteti talabasi

Email: mohruhsorrajabaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola herpes virusi va uning inson organizmiga salbiy ta'sirlari haqida ma'lumot beradi. Unda oddiy herpes virusi (HSV-1 va HSV-2)ning epidemiologiyasi, patogenezini va klinik ko'rinishlari yoritilgan. HSV-1 asosan labial herpesga sabab bo'lsa, HSV-2 jinsiy yo'l bilan yuqadi va genital herpesni keltirib chiqaradi. Virusning latent shaklda uzoq muddat saqlanib, immunitet zaiflashganda qayta faollashuvi ta'kidlangan. Herpes ensefaliti va meningiti kabi og'ir asoratlar, ular tufayli yuzaga keluvchi nevrologik buzilishlar va hayot uchun xavfli bo'lgan holatlar haqida batafsil so'z yuritiladi. Shuningdek, PCR testi yordamida tashxislash usullari, davolashda yuqori dozalarda asiklovir qo'llanilishi va immunitetni qo'llab-quvvatlovchi vaksinalar, jumladan, "Vitagerpavak" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola, shuningdek, herpes virusining surunkali charchoq sindromi, sitomegalovirus, Epshteyn-Barr virusi bilan bog'liqligi va ularning oqibatida limfoma, limfosarkoma kabi kasalliklar rivojlanishi mumkinligini yoritadi. Maqola sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun dolzarb va qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: oddiy herpes virusi, HSV-1, HSV-2, latent, Herpes ensefaliti va meningiti, nevrologik asoratlarga, namoyon qiladi, Tanadagi herpes, Epshteyn-Barr virusi, sitomegalovirus, limfoma, limfosarkoma, gemositoblastoma rivojlanadi, surunkali charchoq sindromi, PCR testi, Homilador ayol, "Vitagerpavak", Gerpetik entsefalopatiyalar, Oddiy herpes ensefaliti (HSE), . Aseptik meningit, Herpes meningiti

**ВИРУС ГЕРПЕСА И ЕГО НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЛЯ
ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА. ГЕРПЕТИЧЕСКИЕ ЭНЦЕФАЛОПАТИИ**

Раджабалиева Мохрухсор Амандулло кизи

Термезский университет экономики и сервиса,
Студент-медик

Электронная почта: : mohruhsorrajabaliyeva@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена вирусу герпеса и его негативному влиянию на организм человека. Рассматриваются эпидемиология, патогенез и клинические проявления вируса простого герпеса (HSV-1 и HSV-2). HSV-1 в основном вызывает лабиальный герпес, в то время как HSV-2 передается половым путем и является причиной генитального герпеса. Отмечается способность вируса находиться в латентной форме в течение длительного времени и реактивироваться при ослаблении иммунитета. Подробно рассматриваются такие тяжелые осложнения, как герпетический энцефалит и менингит, а также связанные с ними неврологические нарушения и угрожающие жизни состояния. Также приводится информация о диагностике с использованием ПЦР-теста, лечении с применением высоких доз ацикловира и использовании вакцин, включая "Витагерпавак", для поддержания иммунитета. В статье освещается взаимосвязь вируса герпеса с синдромом хронической усталости, цитомегаловирусом, вирусом Эпштейна-Барра, а также их роль в развитии таких заболеваний, как лимфома и лимфосаркома. Материал представляет интерес как для специалистов в области здравоохранения, так и для широкой аудитории, поскольку содержит актуальную и полезную информацию.

Ключевые слова: Обычный вирус герпеса, HSV-1, HSV-2, латентный, герпетический энцефалит и менингит, неврологические осложнения, проявляет, герпес на теле, вирус Эпштейна-Барр, цитомегаловирус, лимфома, лимфосаркома, гемоцитобластома развивается, синдром хронической усталости, тест ПЦР, беременная женщина, "Витагерпавак", герпетические энцефалопатии, обычный герпетический энцефалит (HSE), Асептический менингит, герпетический менингит.

Muammoning dolzarbligi: Gerpes — bu virus keltirib chiqaradigan kasallik. Bu teri va shilliq qavatlardagi suyuqlik bilan to'ldirilgan kichik pufakchalarning toshishi sifatida namoyon bo'ladigan yallig'lanish kasalligi. Kasallikning qo'zg'atuvchisi oddiy gerpes virusi (lotincha Herpes simplex yoki HSV) bo'lib, u dunyo aholisining 90% da mavjud, ammo ulardan faqat 5% ida gerpes namoyon boladi va belgilari rivojlanadi. Oddiy gerpes virusi – HSV (Herpes Simplex Virus) dunyo aholisining katta qismini zararlaydi. Masalan, HSV-1 va HSV-2 bilan zararlangan odamlarning foizi juda yuqori (taxminan 60-80%). Keng tarqalganligi: Gerpes virusi

dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan viruslardan biri hisoblanadi. HSV-1 (labial herpes): Asosan og'iz va lab atrofida herpesni keltirib chiqaradi. Taxminlarga ko'ra, dunyo aholisining 67% (taxminan 3,7 milliard kishi) HSV-1 bilan zararlangan. Virus asosan bolalik davrida yoki yoshlikda yaqin aloqa orqali yuqadi. HSV-2 (genital herpes): Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, dunyo aholisining taxminan 11% (15-49 yosh oralig'idagi 491 million kishi) ushbu virus bilan zararlangan. Herpes virusi yuqish osonligi va infeksiyaning ko'p hollarda simptomlarsiz o'tishi sababli butun dunyoda keng tarqalgan. Shu sababli virusning dolzarbligi nafaqat uning tarqalganligida, balki sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan katta yukida ham namoyon bo'ladi.

Kirish. Virus inson organizmida uzoq vaqt davomida latent holatda qoladi va immunitet zaiflashganda reaktivatsiya bo'lib, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Herpes ensefaliti va meningiti kabi kasalliklar hayot uchun xavfli bo'lishi va jiddiy neyrologik asoratlarga olib kelishi mumkin. Herpesviridae oilasi viruslari hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan infeksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, oddiy herpes virusi homiladorlik davrida homilaga ta'sir qiladi, u keltirib chiqaradigan patologiyalar homilaning tashqi ko'rinishi o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Oddiy herpes virusi ko'pincha quyidagilarga ta'sir qiladi:

- shilliq qavatlar;
- nervlar (meningit, ensefalit);
- ko'rish apparati (keratit, konyunktivit);
- teri qoplamasi;
- jinsiy a'zolarining shilliq qavati.

Kasallikning takrorlanishi burunning yon tomonida, lablar chetida, tish milkida va yonoqning ichki qismida, peshonada va hatto ko'z qovog'ida o'zini namoyon qiladi. Ko'pincha yallig'lanish lablar burchaklarida vujudga keladi. Virusning juda ko'p turlari mavjud bo'lsa-da, jami sakkizta turi ajratiladi:

- I. HSV 1-turi - og'iz va labda o'zini namoyon qiladi. Avval yallig'lanish va qizarish, keyin ichida suyuqlik bolgan pufakchalar paydo bo'ladi. Bir hafta davomida pufakchalar joyida noqulaylik va achishish kuzatiladi. Ba'zida

bemorning harorati ko'tariladi. Bu herpesning eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, sovqotish yoki shamollash paytida qaytalanadi.

- II. HSV 2-turi - jinsiy a'zolarida o'zini namoyon qiladi. U genital herpes deb ham ataladi. Virus jinsiy aloqa orqali yuqadi. Birlamchi va ikkilamchi genital herpes mavjud:
 - a. Birlamchi - yuqishdan keyin herpesning birinchi marta namoyon bo'lishi
 - b. Ikkilamchi - kasallikning qaytalanishi, yil davomida takrorlanadi.
- III. Tanadagi herpes (3-turi) – o'rab oluvchi temiratki. Bolalarda suvchechakni keltirib chiqaradi. 35 yoshgacha bo'lgan kattalarda asab tizimiga, ayniqsa bosh suyagi va orqa miya to'qimalariga salbiy ta'sir qiladi. Tanada yirik nervlar o'tadigan joyda bir qator pufakchalar paydo bo'ladi va tanani o'rab turganga o'xshaydi, nomi shundan kelib chiqqan. Shilliq qavatlar virusning bu turi bilan deyarli hech qachon zararlanmaydi. Herpesning ushbu turi bosh og'rig'i, isitma, achishish, qichishish kabi belgilarni keltirib chiqaradi.
- IV. HSV 4-turi (Epshteyn-Barr virusi) tomoq og'rig'i (angina) ning bir shakli bo'lib, unda limfa tugunlari odatdagidan kattaroq bo'ladi. Alomatlari: tomoq og'rig'i, o'zini yomon his qilish, bosh aylanishi. Yetti kun davomida baland harorat saqlanib qoladi va bodomsimon bezlarda suyuqlik bilan to'la pufakchalar paydo bo'ladi.
- V. HSV 5-turi (sitomegalovirus). U ikki xil namoyon boladi: alomatlar umuman kuzatilmaydi yoki kasallik markaziy asab tizimi va organlarga ta'sir qiladi. Virusning bu turi jinsiy yol bilan yoki kundalik hayotda yuqtiriladi. Ushbu virus chaqaloqqa onadan, shuningdek, emizish orqali o'tishi mumkin.
- VI. HSV 6-turi. Virusning bu turi sababli limfoma, limfosarkoma, gemositoblastoma rivojlanadi.
- VII. HSV 7-turi tufayli surunkali charchoq sindromi paydo bo'ladi. Bu bolalik davrida paydo bo'lishi, ammo immun tizimi yomonlashmaguncha o'zini namoyon qilmasligi mumkin. Limfotsitlar ko'pincha normal miqdorda bo'ladi, lekin ular virusning harakatlari tufayli o'z vazifalarini normal bajara olmaydi. Shu sababli surunkali charchoq rivojlanadi. Vaqt o'tishi

bilan asab tizimining yanada jiddiy muammolari paydo bo'lishi mumkin: xotira va aqlning buzilishi, depressiya.

VIII. HSV 8-turi. Faqat PCR testi orqali tashxis qo'yish mumkin. Virusning bu turi faqat prostata bezi va siydik-tanosil tizimi toqimalarida topiladi.

Gerpesning sabablari; Virusning yuqishi bemorning biosuyuqliklari orqali sodir bo'ladi. Bundan tashqari, terining shikastlangan qismiga tegish orqali yuqtirish mumkin.

Homilador ayol uchun gerpes tug'ilmagan bolaga infeksiyasining yuqishi ehtimoli bilan xavflidir. Bachadon boynidagi pufakchalar bepushtlikka olib kelishi mumkin. Shuningdek, gerpes kichik tos sohasi a'zolariga va uning tuzilmalariga ta'sir qilishi mumkin (ganglionit, nevrit, tos simpatalgiyasi). Gerpesning oldini olish uchun shifokorlar quyidagilarni tavsiya qiladilar:

- Jinsiy sherik tanlashda ehtiyot bo'lish;
- Prezervativlardan foydalanish;
- Antiseptiklardan foydalanish;
- Gerpes bilan kasallangan bemor terisi bilan aloqa qilgandan so'ng, odatiy gigiena qoidalarini bajarish;
- Jamoat joylaridan uyga qaytgandan so'ng qo'llarni yuvish yoki tozalash.
- Shaxsiy gigiena qoidalarini e'tiborsiz qoldirmaslik;
- Notanish odamlar bilan oral jinsiy aloqada bo'lmaslik;
- Linzalarga so'lak tekkizmaslik;
- Begona idish-tovoqlar va kiyimlarni ishlatmaslik.

Gerpesning tarqalishini oldini olish uchun bemor pufakchalarni yorib yubormasligi va yaralarda hosil bo'lgan qobiqlarni olib tashlamasligi kerak.

“Vitagerpavak” - bu HSV infeksiyasini davolashda ham, oldini olishda ham qo'llaniladigan gerpesga qarshi emlashdir. Undan yillar davomida foydalanilib kelinadi. Vaksina virusning inaktivlangan antitanalarini o'z ichiga oladi, bu esa bemorda immunitet reaksiyasi hosil bolishini rag'batlantiradi. Bemorlar ushbu

vaksinani yaxshi o'tkazadilar. "Vitagerpavak"ning uzoq vaqt davomida immunitet ishlab chiqarilishini rag'batlantirishi isbotlangan.

Gerpetik entsefalopatiyalar – bu herpes viruslari (ayniqsa, herpes simplex virusi 1 va 2-turi) tomonidan chaqiriladigan markaziy asab tizimi (MAT) shikastlanishi. Gerpetik ensefalit – oddiy herpes virusi tomonidan chaqiriladigan o'tkir yuqumli kasallik. U asosan bosh miya va nerv tizimining o'choqli shikastlanish simptomlari bilan tavsiflanadi. Infeksiya tanaga ko'pincha shilliq qavatlar yoki teri orqali kiradi. Ushbu kasallik og'ir o'tadi va kechikib davolanganda hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Oddiy herpes ensefaliti (HSE) yoki oddiygina herpes ensefaliti, herpes simplex virusi tufayli kelib chiqadigan ensefalit hisoblanadi. U yiliga kamida har 500,000 kishidan 1 nafarga ta'sir qilishi taxmin qilinadi, va ayrim tadqiqotlar tirik tug'ilgan 100,000 chaqaloqdan 5,9 holatni qayd etadi. Sabablari; Gerpetik entsefalopatiya asosan herpes simplex virusi (HSV-1 va HSV-2) infeksiyasi natijasida kelib chiqadi. Virus qon yoki asab yo'llari orqali miya to'qimalariga yetib boradi va shikastlanishga olib keladi. Patogenez; Virus miya ma'lum hududlariga, ayniqsa, temporal o'lkalarga ta'sir qiladi. Bu neyronlarning shikastlanishi, yallig'lanishi va to'qimalarda nekrozga olib kelishi mumkin. Gerpetik entsefalopatiya simptomlari tez paydo bo'ladi va tezda yomonlashishi mumkin. Herpes ensefalitining taxminan 90% holatlari herpes simplex virus-1 (HSV-1) tomonidan chaqiriladi, bu virus shuningdek, sovuq yara (labdagi yara)larni keltirib chiqaradi. 2006-yildagi tahminlarga ko'ra, amerikalik kattalarning 57% HSV-1 bilan yuqtirilgan, bu virus tomchilari, tasodifiy kontaktlar va ba'zan jinsiy aloqalar orqali tarqaladi, garchi ko'pchilik yuqtirilgan odamlarda hech qachon sovuq yara bo'lmasa ham. Qolgan holatlar HSV-2 tufayli yuzaga keladi, bu virus odatda jinsiy aloqalar orqali tarqaladi va jinsiy herpesning sababi hisoblanadi. HSE holatlarining uchdan ikki qismi allaqachon HSV-1 uchun seropozitiv bo'lgan insonlarda ro'y beradi, ularning kamchiligi (faqat 10%) takrorlanuvchi orofatsial herpes tarixi bilan, qolgan uchdan bir qismi esa boshlang'ich HSV-1 infeksiyasidan kelib chiqadi, asosan 18 yoshdan kichiklar orasida uchraydi. HSE rivojlanadigan shaxslarning taxminan yarmi 50 yoshdan katta bo'ladi. Bolalar va kattalarda ensefalitning eng keng tarqalgan sababi HSV-1 hisoblanadi. Ammo, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va immunosuppressiv shaxslar orasida topilgan ensefalit asosan HSV-2 tomonidan keltirib chiqariladi. Klinik belgilari;

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Termiz sh, Farovon massivi 4B-uy

E-mail: feruza_umirqolova@tues.uz


Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi radionuklidlar inson organizmiga tushgach, ovqat hazm qilish tizimida turli onkologik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi radionuklidlarni aniqlash muhim analitik ahamiyatga ega [1]. Analitik tahlillarning aniqligi va ishonchligi esa namuna tanlash va namunani tahlilga tayyorlashga bog'liq bo'ladi. Barcha analitik tahlillarda namuna olish va namunani tahlilga tayyorlash alohida e'tiborga molik jarayon hisoblanib, bunda namunaning agregat holati, kimyoviy tarkibi va tuzilishi, uchuvchanligi, zaharligi, tez aynib qolishi va boshqa biokimyoviy jarayonlar hisobga olinishi kerak bo'ladi [2]. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlaridan namuna olish o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining turlicha agregat holatda (qattiq - go'sht, baliq, kolbasa, vetchina, sariyog', tvorog, margarin va boshqalar, suyuq – moy, sut, sharbat, emulsiya – qiyom, murabbo, bo'tqa, qatiq va boshqalar) bo'lishdan tashqari, turli xil tarkibli va turli maqsadlarda tayyor va yarim tayyor mahsulotlarga bo'linadi [3]. Bundan tashqari, sabzavotlar, ko'katlar, mevalar, ziravorlar va boshqa ko'pgina oziq-ovqat turlari bo'lib, ularning har birida alohida namuna tahlilga tayyorlanishi mumkin. Shu sababli, radiometrik-spektrometrik aniqlashda umumiy namunani tayyorlash bo'yicha me'yyoriy hujjat bo'lmaydi. Radionuklidlarni tahlil qilish uchun oziq-ovqat namunalarini tayyorlash aniq natijalarni olish uchun juda muhim uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1). Oziq-ovqat namunasi begona jinslar (suyak, olma yadrosi, yong'oq va tuxum qobig'i kabi yirik zarralar hamda qo'shimchalar) dan tozalanadi. Bitta ovqatning har qanday qulay miqdori (qismi) dan namuna olish mumkin va radionuklid tarkibi og'irlik yoki hajm asosida aniqlanishi mumkin.

2). Oziq-ovqat namunalarini tayyorlashda ikkinchi operatsiya namunani bir xil massaga keltirishdir. Buning uchun oziq-ovqat namunasi blender yoki mikserda o'lchami 1-2 mm gacha qilib maydalanadi.



3). Uchinchi namunani eritmaga o'tkazishdir. Buning uchun 50 g o'lchangan namunani 200 ml distillangan suvda eritib, unga 5 ml 2% li sulfat kislotasi eritmasi qo'shiladi va elektr plitada 20 daqiqa 60 °C gacha qizidirladi. Qizdirish mo'rili shkafda malga oshiriladi, chunki eritma tarkibidagi uchuvchan gamma-zarrachalar ajralib chiqadi. Eritma tarkibidagi Cs-137, Sr-90 va K-40 radionuklidlari uchub ketmasligi uchun haroratni 60 °C dan oshirmaslik lozim. Oziq-ovqat namunalari suv o'tkazmaydigan idishlarga qadoqlanishi kerak va agar saqlash paytida muzlatilgan bo'lsa, oldin eritilib, tahlil qilish lozim. Ushbu usulda namunalarga konservant qo'shish zarur bo'lmaydi. Namunani 48 soat ichida tahlil qilish talab etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshkaraev Sadridin, Babamuratov Nurmamat, Safarov Azamat. Radiometric determination of the presence of cesium-137 and strontium-90 radionuclides in food. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 11, 2020.

2. Eshkaraev Sadridin, Normamatov Nemat, Rakhimov Murod. Radiometric determination of the presence of caesium-137 and strontium-90 radionuclides in products of the fodder industry. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 11, 2020.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TABIIY FANLAR ORQALI
O'QITISHDA ILMIY HABARDORLIK KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISH**

Raxmonova Zulayxo Abdumalikovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs

magistri

Email: raxmonovaz@gmayl.com

Buzrukov. T.O

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tabiiy

fanlar kafedrasida dots, v.b pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: buzrukovtulqin5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi boshlag'ich ta'lim tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium

**ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ
ШКОЛЫ СРЕДСТВАМИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

Термезский университет экономики и сервиса, 2 курс

Мастер Рахмонова Зулайхо Абдумаликовна

Электронная почта: raxmonovaz@gmayl.com

Термезский университет экономики и сервиса

Кафедра наук, доцент и т.д. Педагогические науки

Доктор философских наук (PhD) Бузруков. Т.О.

Электронная почта: buzrukovtulqin5@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методы организации практической работы по приобщению детей к природе во внеурочной деятельности на уроках естествознания в начальной школе.

Ключевые слова: практические методы, рецептор, эксперимент, объект, операция, экскурсия, гербарий, гранит, аквариум, террариум

FORMING SCIENTIFIC AWARENESS COMPETENCE IN PRIMARY STUDENTS' EDUCATION THROUGH NATURAL SCIENCES

Termez University of Economics and Service,
2nd year Master Rakhmonova Zulaykho Abdumalikovna

Email: raxmonovaz@gmail.com

Termez University of Economics and Service,
Associate Professor of the Department of Natural Sciences,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Buzrukov. T.O Email: buzrukovtulqin5@gmail.com

Abstract: The article discusses effective methods of organizing practical work to introduce children to nature in the process of extracurricular activities in natural science lessons of primary education.

Keywords: practical methods, receptor, experiment, object, operation, excursion, herbarium, granite, aquarium, terrarium

Dasturlashtirilgan o'qitishda o'quvchilarning o'quv materialini qo'llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o'qitish jarayonini individuallashtirish imkoni paydo bo'ladi, texnik vositali o'qitish keng qo'llaniladi, o'qitish va o'quvchi mehnatini oqilona tashkil etishga erishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o'quvchilarning og'zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqlar bilan yozma ravishda. Ularning afzal jihati shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlay oladi. Tajriba atrof olam bilan tanishish darslarida bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish

usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatadi. Bu usullarning afzalligi shundaki, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'quvchilarning o'zlari shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin. 2 - sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Grafik topshiriqlarini bajarayotganda o'quvchilarga « — » noto'g'ri javob, «1» — to'g'ri javob ekanligini tushuntirish lozim. O'qituvchida esa grafik usuldagi javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo'lishi kerak. Masalan:

21- mart — Navro'z bayrami.

1- sentabr — Ustozlar va murabbiylar kuni.

1- oktabr — Mustaqillik bayrami.

8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

«So'z top» o'yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak.

Masalan: tulki — ilon — ninachi — it — tipratikan — nortuya — yalqov (panda) — ayiq — qarg'a — ari va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klaster» usuli. Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylash va fikrlarini bemaol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. «Klastyer» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, «O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar» mavzusi.

«Mozaika», ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To'xtab o'qish» usuli. O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga

tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

«Zanjir» usuli. Bu usulni she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga mu-vofiqdir. O'quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'ladi.

«Rasmi rebus» o'yini. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, it, laylak, ohu, ninachi — non, anor, rediska, chinni gul, arpa — archa.

«Kim tez bajaradi» o'yini. O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1—2 daqiqada) o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari guruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

«O'z guruhingni top» o'yini. O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. Mushuk (miyov-miyov). 2. Kuchuk (vov-vov). 3. Xo'roz (qu-qu-qu-qu). 4. Sigir (mo'-mo'). Guruhga bo'linib olganlaridan so'ng guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so'zlab beradilar.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va osimliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o'rganishda foydalanish mumkin. Burchak shuningdek o'quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun moddiy baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istagan vaqtida ish olib borishlari mumkin ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanini bo'lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan o'quvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo'ng'izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv o'simliklarining barchasi akvarium, shisha banka idishlarga joylashtiriladi. Bog' va polizlarda ko'pincha meva, rezavor meva hamda sabzavod o'simliklari zararkunandalarning g'umbak va qurtlari uchraydi. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma'qul. Bunday imkoniyat bo'lmaganda osimlik va hayvonlarni tabiatshunoslik xonasida yoki sinfdan joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug' bo'lishi, deraza ro'parasiga har xil tokchalarga suv hayvonlari

hamda osimliklari bo'lgan akvariumlarni qo'yish qulay bo'ladi. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O`quv qo`llanma Buxoro-2020.
2. G.M. Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. Buxara-2020
3. Сафарова М.С., Хамитова Ф.А. Непосредственное влияние заболеваний челюстно-лицевой области и зубов на психику и внутренние органы// Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации . – 2015. - №2 – С. 4-6.
4. Kamalova F.R. Development and evaluation of the effectiveness of the dental dental examination program for children with diabetes in adverse enviro-nmental Conditions// Academicia10 Issue 1, January. - 2020. Vol. 1. - P. 1364 - 1366.

IFLOSLANGAN HAVONING INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI VA SOF HAVO UCHUN KURASH YO'LLARI

Egamova Zebo Sharipovna

Xorazm Viloyati Qo`shko`pir tumanidagi

11-umumiy o`rta ta`lim maktabining

Oily toifali biologiya fani o`qituvchisi

egamovazebo003@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada havoning ifloslanishi deyarli har bir yirik shaharda salomatlik darajasiga tushib, odamlarning nafas olish, jiddiy salomatlik sharoitlarini keltirib chiqarishi yoki og'irlashtirishi va xavf ostida qolishi oqibatida ijtimoiy hayotni buzilishi sabablari va ularni bartaraf etish masalalari xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ifloslanish, salomatlik, ijtimoiy hayot, benzipiren, rak, sanoat chiqindilari, pnevmaniya, bronxit, ultrabinafsha nurlar, chiqindisiz texnologiya, sanoat markazlari, xona o`simliklari.

Keyingi yillarda matbuotda yirik sanoat shaharlari havosining ifloslanishi bo'yicha chop etilgan ishlarda sanoat karxonalarining atrof muhidga chiqarayotgan chiqindilarini aholi sog'ligiga zarar qilayotgani haqida so'z yuritiladi.

Ba'zan shaharlarda shamol esmasligi, iflos havoning bir necha kun turib qolishi tufayli zaharli har xil chang va gazlardan iborat bo'lgan tuman vujudga keladi. Natijada organizmi zaif bo'lgan kishilar, bolalar, qariyalar, bemorlar bu tumanli iflos havoga bardosh beraolmay halok bo'lishi ham mumkin.

Odamlarda rak kasalligi ayniqsa sanoat shaharlarida to'xtovsiz ko'payib borayotganligi butun dunyo shifakorlarini va jamoatchiligini tashvishga salmoqda. Rak kasalligiga sabab bo'ladigan moddalar, qisman 3,4 benzipiren avtomobildan chiqadigan gazlar qozonxonalar tutuni va qurumda borligi aniqlangan. Changiganatmosferahavosi quyosh nurini yutib, odamga bilvosita ta'sir ham ko'rsatadi. Chang ko'p bo'ladigan joylarda chang odam organizmi uchun zarar bo'lgan ultrabinafsha nurlarining 40-50% initutibqolishim mumkin.

Ma'lumki, ultrabinafsha nurlar ta'sirida odam organizmida vitamin D hosil bo'ladi, bu vitamin kalsiy va fosfor almashinuvini normaga solib turadi, bolalarda rahid

kasalligining oldini oladi. Keyingi yillarda ko`pgina mamlakatlarda o`pka; hiqqildoq va boshqa a`zolarining rak kasalligi mutassil ko`payib borayotgani kuzatilmoqda. Masalan, Fransiyada o`pka raki tufayli sodir bo`luvchi o`lim hodisasi har yili 3 baravardan o`sib bormoqda. Bunda eng ko`p o`lim sanoat korxonalarini ko`p bo`lgan shaharlarga to`g`ri kelmoqda. Ko`pgina mamlakatlarda olib borilgan tekshirishlar atmosfera havosining zararlanishiga plastmassalar ishlab chiqaradigan korxonalar, superfosfat, azotli zavodlar va boshqalarning chiqindilari aholi sog`ligiga hamda ahvoliga yomon ta`sir qilishini ko`rsatadi. Masalan sanoat chiqindilari tashlanadigan joyda yashovchi bolalarni shifokor ko`rigidan o`tkazilganda, ularning havosi sof joyda yashaydigan bolalarga nisbatan yuqori nafas yo`llari kasalliklari (pnevmaniya , bronxit) bilan 2-3 marta ko`proq og`rishi, ular organizimida biokimyoviy va immunabiologik himoyareaksiyasining susayishini ko`rsatadi.

Atmosfera havosining ifloslanishiga qarshi kurash nihoyatda og`ir va murakkab masala hisoblanadi. Biroq hozirdagi texnika taraqqiyoti bu masalani hal etishga imkon beradi. Sof havoni saqlash yo`llaridan biri rejali ravishda ko`riladigan chora – tadbirlardir. Buning uchun aholi yashaydigan joylarda atmosfera havosini ifloslantiradigan zavotlar qurishni man etish lozim. Bunday korxonalarini aholi yashaydigan joydan tashqarida mahsus ajratilgan joylarda shamol yo`nalishini hisobga olib qurish kerak. Shaharlar hamda maktab atroflarini ko`kalamzorlashtirish havoning musaffo bo`lishi uchun kurashishda muhim tadbirlardan hisoblandi. Chunki yashil daraxtlar 25 % changni tutib qolishi bilan birga, havoni ba`zi gazlardan tozalaydi. Ayrim tadqiqotchilarning ma`lumotlariga ko`ra 1 gektar yashil daraxtzor 1 yilda 18 million kubometr havoni turli xildagi gaz va changdan tozalaydi. Maktab atrofini ko`kalamzorlashtirish bilan birga, maktab sinflari va ishxonalarda xona o`simliklaridan begoniya, kaktus, asparagus, kaleus, manstera, oleander, paparatnik, fikus, fuksiya kabilarni ko`paytirish lozim. Ular ham havoni tozalab turishda katta rol o`ynaydi. Odatda xonalar har soatda 5-10 minutdan shamollatib turiladi. Umumtalim maktablari va oliy ta`lim muassasalarida o`quv xonalarini muntazam shamollatish maqsadga muvofiq. Ayniqsa laboratoriyalarning yaxshi shamollatib turilishiga ahamiyat berish zarur. Darslardagi tajribalarda havoga zaharli bug` va gaz ajralib chiqishi tufayli ayniqsa simob bilan ish olib borilgandan so`ng xonani shamollatish muhim. Sof havoni uchun kurashda quyidagi tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

1. Chiqindisiz texnologiyani joriy etish. Havo musaffoligini taminlash .
2. Avtomashinalardan chiqadigan va inson sog`ligi uchun zararli bo`lgan gazlarni tozalash.

3. Shaharlarda va sanoat markazlarida atmosferaning holatini doimo nazorat qilib turish.
4. Sanoat korxonalarini joylashtirish va qurishda iqlim va ob-havoni hisobga olish va atmosferani hozirgi hisobga olish va chiqindilar chiqarish normasini belgilayotganda atmosferaning kelajakda, chunonchi bir necha kundan so`ng qanday bo`lishini oldindan bilish.
5. Sanoat korxonalarining belgilangan qoidalariga muvofiq ishlashini qat`iy nazorat ostiga olish va bu qoidalarni buzganlarni jazolash.

Xulosa qilib aytganda atmosfera havosining tozaligini saqlash insoniyatning shaxsiy manfaatlariga xizmat qiladi, chunki sof havo sog`likning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eshmuhammedov.A, Saxarov.G, Shahrimizhavosi va uni muhofaza qilish ,, Fan “, T,1980
2. Taxiroy.M, Shaharlarimiz havosi musaffo bo`lsin. (Meditsina)Toshkent 1975
3. Haqqulov.P, Baratov.P (Atrof muhitni muhofaza qilish) umumxalq ishi ,, Fan “ Toshkent 1979
4. Solixojayev S, Fayziyeva M, Eshonxonova S. Umumiyta'limvahunarmaktabiislohotisharoitidao'quvchilargigiyenasi.Toshkent ,, Medisina “, 1987.
5. OchilMavlonov .BiologiyaAsoslari,,O'zbekistonmilliyensiklopediyasi” Davlatilmiynashriyoti.Toshkent 2012.

O`ZBEK TILI ZAMONAVIY UNIVERSAL LUG`ATINING YANGI AVLOD UCHUN FOYDALILIGI

Yaxshiboyev Sherzod

Termiz davlat universiteti O`zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi magistranti.

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kundagi universal lug`atga bo`lgan muhtojlik qay darajada va uning ilmiy hamda ishtimoiy jamiyatda qaydarajada o`rin tutishi. Bu sohadagi ko`plab tatqiqotlar va manbalarning umumiy ko`lami va shunga o`xshash universal lug`atlar yaratishga qodirmi shu hususida so`z boradi.

Kalit so`zlar: yangi ko`rinishdagi lu`gatlar, sinonimlar, electron o`quv lug`atlar, korpus manbalari.

Abstract. In this article, discussing the current need for a universal dictionary and its role in scientific and social societies. It explores the scope of numerous research studies and sources in this field, as well as whether it is possible to create similar universal dictionaries.

Keywords: new-generation dictionaries, synonyms, electronic educational dictionaries, corpus resources

Zamonaviy dunyoda til o`rganish va uning imkoniyatlaridan foydalanish sohalari jadal rivojlanmoqda. Bunga sabab, globalizatsiya jarayonlari va yangi texnologiyalar, xususan, kompyuter va sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar hisoblanadi. Bularning barchasi tilning universal lug`atlari zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O`zbek tilining zamonaviy universal lug`atini yaratish va uning yangi avlod uchun foydaliligi masalasi, ayniqsa, ta`lim, ilmiy-tadqiqot va ijtimoiy sohalarda ahamiyatlidir. Ushbu maqolada o`zbek tilining universal lug`atlari, elektron o`quv lug`atlari, sinonimlar va korpus manbalari haqida kengroq ma'lumot beriladi.

Universal lug`atlar — bu keng qamrovli lug`atlar bo`lib, ular tilning barcha qatlamlarini o`z ichiga oladi. Ular nafaqat umumiy leksik ma'nolarni, balki ilmiy, texnik, ijtimoiy va madaniy sohalardagi maxsus atamalarni ham o`z ichiga oladi. Universal lug`atlar o`zgaruvchan va dinamik bo`lishi kerak, chunki til doimiy ravishda

rivojlanib boradi va yangi atamalar, jumladan, texnologik va ilmiy terminologiyalar paydo bo'ladi. "zamonaviy maktab uchun maxsus lug'at yaratish harakatlarining paydo bo'lishi ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta'limdan verbal kognitiv ta'lim usuliga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ma'lumki, kognitiv ta'lim retroskopik ta'limdan yordamchi o'quv materialining darslik materialidan bir necha marotaba kattaligi, o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, zaruriy ma'lumotlarni axborot banki – lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar kabi ona tili xazinalaridan izlashi bilan farqlanadi". [Bahriddinova, 2020: 80].

Zamonaviy lug'atlar uchun **onlayn formatda** mavjud bo'lishi va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lishi juda muhimdir. Chunki, bugungi kunda odamlar ko'proq internetda va mobil ilovalarda resurslardan foydalanishmoqda. Buning natijasida, **elektron lug'atlar** an'anaviy chop etilgan lug'atlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Elektron lug'atlar yangilanishi oson, kengaytirilishi mumkin va ular foydalanuvchilarga qulay interaktiv imkoniyatlar taqdim etadi.

Ilmiy-tadqiqot sohasida universal lug'atlar o'zaro tushunishni oshiradi. Xalqaro ilmiy muloqotda va hamkorlikda, xususan, turli tillarda so'zlashuvchi olimlar o'rtasida kommunikatsiyani soddalashtiradi. Ilmiy adabiyotda ishlatiladigan terminlar va atamalarni bir xil va aniq ifodalash juda muhimdir, chunki bu ilmiy ishlarning to'g'ri va tushunarli tarzda taqdim etilishini ta'minlaydi. Misol uchun, **tibbiyot, texnologiya, fizika** kabi sohalarda yangi atamalar va tushunchalar paydo bo'lmoqda. Bu yangi atamalarni universal lug'atlarda izohlash, ularning global darajada to'g'ri tushunilishi va ishlatilishini kafolatlaydi. "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati"(2007-2009), O.Shukurov, B.Boymatovalarning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007-2009) yaratilishi o'quv lug'atlarini ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy sohada universal lug'atlar nafaqat **madaniy almashinuvni**, balki **ijtimoiy integratsiyani** ham ta'minlaydi. Ko'plab mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar, shuningdek, ta'lim sohasidagi hamkorlikning kuchayishi, global kommunikatsiyaning samarali bo'lishini taqozo etadi. Universal lug'atlar bu jarayonda **tilni boyitish** va **muammolarga yechim topishga** yordam beradi.

Shuningdek, **madaniy moslashuv** va **ixtiloflarni bartaraf etishda** universal lug'atlar katta ahamiyatga ega. Ular turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi madaniy va til tafovutlarini kamaytiradi. Misol uchun, O'zbekistondagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda universal lug'atlar, ularning ta'lim, madaniyat va siyosatdagi o'rni haqida bir xil tushunchalarga ega bo'lishda yordam beradi.

Sinonimlar tilning eng boy va kompleks qismlaridan biridir. Ular bir xil yoki o'xshash ma'noni anglatadi, lekin turli kontekstlarda ishlatiladi. Yangi avlod lug'atlari sinonimlarni tizimli va aniq ravishda kiritish orqali tilning boyligini oshiradi.

Masalan, sinonimlarning ma'nolaridagi nozik farqlarni ko'rsatish, ularning **semantik xususiyatlarini** yoritish yangi avlod lug'atlari yordamida amalga oshiriladi. Bu tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarga yanada to'liq tushuncha beradi va yozishmalarda to'g'ri so'zlarni tanlashda yordam beradi. Shuningdek, sinonimlar yordamida tilning **ifodaviy imkoniyatlarini** kengaytirish mumkin. Misol uchun, sinonimlar yordamida turli xil ohang, tuzilma va kontekstlarni yaratish mumkin, bu esa tilning yanada boy va nozik bo'lishini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va kompyuter lingvistikasi **elektron o'quv lug'atlarini** yaratishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Elektron lug'atlar foydalanuvchilar uchun nafaqat interaktiv tarzda mavjud bo'lib, balki ularni **onlayn platformalarda** ishlatish imkoniyati ham mavjud. Elektron o'quv lug'atlari, o'z navbatida, **korpus manbalari** asosida ishlab chiqiladi. Korpus — bu real hayotdagi matnlar to'plami bo'lib, so'zlarni ishlatish va ularning ma'nolarini tekshirishda asosiy manba hisoblanadi.

Korpus manbalari yordamida tilshunoslar lug'atlarni yaratishda nafaqat so'zlar ma'nolarini, balki ularning turli kontekstlarda qanday ishlatilganligini ham hisobga olishadi. Misol uchun, biror so'zning turli madaniyatlarda, shahar yoki qishloq hududlarida qanday ishlatilishini aniqlash uchun korpus manbalaridan foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda **sun'iy intellekt (AI)** va **tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)** texnologiyalari yordamida yangi avlod lug'atlarini yaratishning imkoniyatlari yanada kengaygan. Bu texnologiyalar yordamida lug'atlarning aniqligi, samaradorligi va imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Mashina o'rganish algoritmlari va tabiiy tilni qayta ishlash usullari, ayniqsa, sinonimlar va antonimlarni aniqlashda katta yordam beradi. Bunday texnologiyalar yordamida lug'atlar to'g'ri va mukammal tarzda yaratiladi va doimiy ravishda yangilanadi.

Shuningdek, yangi avlod lug'atlarini yaratishda **kollaborativ platformalar** yordamida ko'plab foydalanuvchilar va mutaxassislarining fikrlari va tajribalaridan foydalanish mumkin. Bu esa lug'atlarning yanada boy, aniq va keng qamrovli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib, o'zbek tilining zamonaviy universal lug'atini yaratish yangi avlod uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Elektron o'quv lug'atlari, korpus manbalari va yangi texnologiyalar yordamida lug'atlarni yaratish nafaqat tilning boyishini ta'minlaydi, balki ilmiy, madaniy va ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlarini ham soddalashtiradi. Sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari yordamida yangi avlod lug'atlarini yana yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiraimov Sh. Sinonimlar o'quv lug'atini takomillashtirish zarurati. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" xalqaro konferensiyasi materiallari (2021, № 01). 377-381-b.
2. Bahriddinova B. "O'quv lug'ati" va "o'quv lug'atchiligi tushunchalaring paydo bo'lish tarixiga doir // QarDU xabarlari. Ilmiy nazariy uslubiy jurnal. – Qarshi, – 2020, 2-son. – B .76-83
3. Bahriddinova B. O'zbek tilida o'quv lug'ati tillarini ajratish muammolari //Ilm ham jamiyat. Ilmiy – metodikalik jurnal. – Nukus. – 2020. – B.42-44
4. Bahriddinova B. Ona tili darsliklarining yangi avlodi: muammo va yechimlar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2017-yil, 10-son. – B. 21-23
5. Bahriddinova B. O'quv lug'atchiligining tarixiy ildizlari O'zbek milliy leksikografiyasining dolzarb muammolari Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari . – Toshkent, Turonzamin ziyo. – 2017. B – 38-41.
6. Mirxodirova G. O'zbek tilining sinonim so'zlar o'quv lug'atini tuzishning lingvistik asoslari: filol.fan.bo'y.fal.doktori. ...diss. – Qarshi, 2022. – 144 b. 7. Saidova F. Lug'atlarda sinonim filol.fan.bo'y.fal.doktori. ...diss. – Guliston, 2023. – 139.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. / Mas'ul muharrir Madvaliyev A. – T.: O'zbekiston nashriyoti davlat unitar korxonasi , 2020.
8. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To'rtinchi nashri. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
9. A.G'ulomov, H.Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni. – T.: O'qituvchi , 1995.

10. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.

11. Ona tilidan takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti. Ona tilidan takomillashtirilgan o'quv dasturi // Til va adabiyot ta'limi, 2005, № 4.

BUDJET MABLAG'LARINING NOQONUNIY O'ZLASHTIRILISHINING TURLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Dusbekov Jahongir Dilshod o'g'li

realtfi24@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
Akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" magistratura yo'nalishi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi bilan bog'liq muammolar o'rganilgan. Qurilish sohasida keng tarqalgan usullar, ularning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Budget mablag'larining samarali boshqaruvi uchun xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Budget mablag'lari, noqonuniy o'zlashtirish, korrupsiya, qurilish, nazorat, huquqiy choralar, iqtisodiy zarar.

Kirish

Bugungi kunda davlatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy sohalarni izchil rivojlantirish masalasi jamiyat rivojlanishining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, aholi farovonligini oshirish uchun ajratiladigan budget mablag'lari davlatni samarali boshqarishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'riladi. Mazkur mablag'lar mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy poydevorini tashkil etadi, chunki ular yordamida muhim loyihalar amalga oshiriladi, infratuzilma rivojlantiriladi va fuqarolarning hayot sifati yaxshilanadi. Afsuski, bu resurslarning noqonuniy o'zlashtirilishi va ulardan noto'g'ri foydalanilishi iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazib, davlat resurslarining samarali boshqarilishiga to'sqinlik qiladi. Natijada korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar keng miqyosda tarqalib, jamiyatda chuqur adolatsizlik hissini kuchaytiradi. Eng ko'p e'tibor talab qiluvchi sohalardan biri bu qurilish sektori bo'lib, u davlat iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada budget mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish holatlari keng tarqalgan bo'lib, bu o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, ko'plab qurilish loyihalarining bajarilmasligi, infratuzilma rivojlanishidagi sekinlashuv va jamiyatda norozilikning ortishi kuzatilmoqda. Qurilish sohasi davlat tomonidan katta miqdorda mablag' talab qiladigan yo'nalish bo'lgani sababli, u

noqonuniy faoliyatlar uchun yuqori xavf zonasida joylashgan. Ushbu jinoyatlar ko'pincha davlat buyurtmalari jarayonida amalga oshiriladi. Soxta kompaniyalar tashkil etish, qurilish smetalarini sun'iy ravishda oshirish, ishlatilmagan materiallar uchun hujjatlar tayyorlash va tender jarayonlarida shaffoflikni buzish kabi usullar korrupsiya ko'lamini oshirmoqda. Budget mablag'larining noqonuniy yo'llar bilan o'zlashtirilishi davlat iqtisodiyotiga katta moliyaviy zarar keltiradi, shu bilan birga, fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu holat xalqaro darajada mamlakatning obro'siga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori. Bunday sharoitda, masala nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va huquqiy muammolarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu muammoga qarshi kurashish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu maqolada budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishining asosiy usullari chuqur tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba o'rganilib, mamlakatimiz sharoitiga mos keluvchi samarali mexanizmlar taklif etiladi. Davlat organlarining nazorat tizimlarini modernizatsiya qilish, qonunchilik bazasini mustahkamlash va fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilish orqali bu muammoni hal qilish uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. Budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishiga qarshi kurashish nafaqat davlat organlarining, balki barcha fuqarolarning ham mas'uliyatli vazifasidir. Bu muammoni o'z vaqtida hal qilish iqtisodiy barqarorlikni saqlash, xalqaro obro'ni oshirish va mamlakatning izchil taraqqiyotini ta'minlash uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shu sababli, barcha sa'y-harakatlar korrupsiyaga qarshi kurashda birlashtirilishi va xalq farovonligi yo'lida yo'naltirilishi lozim.

Budget mablag'lari va ularning ahamiyati- Budget mablag'lari davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan eng asosiy moliyaviy resurslardan biri hisoblanadi. Ushbu mablag'lar davlat tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, milliy infratuzilmani mustahkamlash va fuqarolarning farovonligini oshirish maqsadida ajratiladi. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim sohasi, transport va energetika infratuzilmasini qurish hamda ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirish uchun ushbu resurslar muhim rol o'ynaydi. Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar aholining turmush sifatini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish va jamiyatdagi iqtisodiy tenglikni ta'minlashning eng samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi. Budget mablag'lari nafaqat davlat iqtisodiyotini boshqarish, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Ularning samarali va maqsadli ishlatilishi davlatning barcha sohalarida izchil rivojlanishni ta'minlash uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Masalan,

ta'limga ajratilgan mablag'lar kelajak avlodning bilimli va malakali bo'lishini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilgan resurslar fuqarolarning salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, infratuzilma qurilishiga ajratiladigan budjet mablag'lari mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan logistika va energetika tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, budjet mablag'larining noto'g'ri boshqarilishi yoki noqonuniy o'zlashtirilishi davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Afsuski, bunday salbiy holatlar dunyoning ko'plab davlatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham uchrab turadi. Mablag'larning noqonuniy o'zlashtirilishi ko'pincha davlatning yirik iqtisodiy loyihalariga, xususan, qurilish sohasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu soha yuqori xarajatlar talab qilishi sababli korrupsiya va moliyaviy jinoyatlar uchun o'ta sezgir hisoblanadi. Qurilish sohasi davlat iqtisodiyotida muhim o'rin egallab, infratuzilmani rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Ammo ushbu sohadagi noqonuniy harakatlar ko'pincha davlat resurslarining samarasiz ishlatilishiga olib keladi. Misol uchun, tender jarayonlaridagi shaffoflikning buzilishi, qurilish smetalari xarajatlarini oshirib ko'rsatish, soxta kompaniyalar orqali mablag'larni o'zlashtirish kabi amaliyotlar davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Bu esa mamlakat infratuzilmasining sekin rivojlanishiga, loyihalarning kechiktirilishiga yoki sifatsiz bajarilishiga olib keladi. Budjet mablag'larining samarali boshqarilishi va ularning noqonuniy o'zlashtirilishining oldini olish nafaqat iqtisodiy masala, balki ijtimoiy va huquqiy masala sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu mablag'larni adolatli va shaffof taqsimlash hamda ulardan samarali foydalanish orqali davlat va jamiyatning o'zaro ishonchini mustahkamlash mumkin. Shu sababli, budjet mablag'larini boshqarishda nazorat tizimlarini takomillashtirish, qonunchilikni kuchaytirish va fuqarolarni faol jalb qilish zarur. Faqat shundagina iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va davlatning uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlash mumkin bo'ladi.

Noqonuniy o'zlashtirish turlari- Budjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab muammolardan biridir. Ushbu jinoyatlar turli shakllarda namoyon bo'lib, ularning amalga oshirilishi zamonaviy iqtisodiyotning murakkab mexanizmlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Quyida bu noqonuniy faoliyatlarning asosiy turlari va ular qanday tarzda amalga oshirilishi haqida batafsil ma'lumot keltiriladi: **Soxta shartnomalar orqali mablag'larni o'zlashtirish** - Davlat buyurtmalari yoki loyihalari soxta kompaniyalar bilan shartnoma tuzish orqali mablag'larning noqonuniy o'zlashtirilishi eng keng tarqalgan usullardan biridir. Bu jarayonda davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar hech qanday haqiqiy faoliyat yoki

xizmat ko'rsatilmagan holda sohta hisobotlar bilan yo'naltiriladi. Ko'pincha, qurilish sohasida bajarilmagan ishlarga to'langan mablag'lar yoki bajarilgan ishlarning qiymati sun'iy ravishda oshiriladi. Bu usul davlat mablag'larining ko'lami keng bo'lgan loyihalarda, ayniqsa, infratuzilma ob'ektlarini qurishda tez-tez uchraydi; **Moliyaviy hujjatlarni soxtalashtirish**- qurilish smetalaridagi ma'lumotlarning soxtalashtirilishi orqali budjet mablag'lari noqonuniy tarzda o'zlashtiriladi. Masalan, loyihada ishlatiladigan materiallar yoki xizmatlarning qiymati oshirib yoziladi, amalda esa bu xarajatlar kamroq mablag' talab qiladi. Ushbu turdagi soxtalashtirish davlat uchun ikki tomonlama zarar keltiradi: bir tomondan, ajratilgan mablag'larning bir qismi noqonuniy yo'llar bilan yo'qotiladi; ikkinchi tomondan esa, loyihalarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; **Tender jarayonlaridagi korrupsiya** - tender jarayonlari davlat loyihalarini amalga oshirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ammo shaffoflikning buzilishi, ya'ni oldindan kelishilgan kompaniyalarga tenderlarning berilishi korrupsiya ko'rinishidagi jinoyatlarning keng tarqalishiga olib keladi. Tenderlarda qatnashuvchi boshqa halol kompaniyalar uchun adolatsizlik holati yuzaga keladi va davlat mablag'lari noto'g'ri sarflanadi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga va loyihalarning sifatsiz bajarilishiga olib keladi; **Ishlab chiqarilmagan yoki foydalanilmagan materiallar** - ushbu jinoyat turi qurilish materiallari va boshqa resurslar bo'yicha yolg'on hisobotlar tayyorlash orqali amalga oshiriladi. Hisob-kitob hujjatlarida mavjud bo'lib ko'rsatilgan materiallar aslida hech qachon ishlab chiqarilmagan yoki ob'ektda ishlatilmagan bo'ladi. Natijada, davlat mablag'lari amalda mavjud bo'lmagan materiallarga sarflangan deb ko'rsatiladi, lekin bu mablag'lar noqonuniy yo'llar bilan o'zlashtiriladi; **Qaytarilmaydigan kreditlar** - davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yoki boshqa loyihalar uchun ajratilgan kreditlar noqonuniy yo'llar bilan qaytarilmaslikni oldindan rejalashtirgan holatlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatda kredit ajratilgan mablag'lar loyihani amalga oshirishga emas, balki shaxsiy maqsadlarda foydalanishga yo'naltiriladi. Bu davlat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazib, kredit tizimiga bo'lgan ishonchni kamaytiradi. Budjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi ko'pincha murakkab va turli xil mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jinoyat turlarining oldini olish uchun davlat boshqaruv tizimini shaffoflashtirish, nazoratni kuchaytirish va fuqarolarni xabardor qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu masalada xalqaro tajribalardan samarali foydalanish va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish davlat uchun ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Noqonuniy o'zlashtirishning oqibatlari - Budjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi nafaqat davlat iqtisodiyoti, balki ijtimoiy hayotning turli jabhalariga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jinoyatlarning oqibatlari keng qamrovli bo'lib, ular nafaqat iqtisodiy zarar, balki jamiyatning ahloqiy-ijtimoiy barqarorligini ham buzadi. Quyida ushbu noqonuniy faoliyatning asosiy oqibatlari kengroq tahlil qilinadi:

Iqtisodiy zarar: Budjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi natijasida davlat katta miqdordagi moliyaviy resurslardan mahrum bo'ladi. Bu resurslar odatda ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning noto'g'ri sarflanishi ko'plab loyihalarning to'liq amalga oshirilmasligiga sabab bo'ladi. Natijada, davlat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari sekinlashadi, milliy daromad pasayadi va investitsiyalarning qaytuvchanligi kamayadi. Bunday iqtisodiy zararlar uzoq muddatli rivojlanish rejalari va budjetni qayta taqsimlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Rivojlanish loyihalarining kechikishi yoki to'xtashi: Qurilish va infratuzilmaviy loyihalarda mablag'larning noqonuniy o'zlashtirilishi loyihalarning o'z vaqtida yakunlanmasligiga yoki umuman amalga oshirilmasligiga olib keladi. Masalan, yangi yo'llar, ko'priklar yoki sog'liqni saqlash obyektlarining qurilishi cho'zilib ketadi yoki to'xtaydi. Bu holat aholining turmush sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda umumiy norozi kayfiyatni oshiradi. Rivojlanish loyihalarining sustligi xalqaro miqyosda ham mamlakatning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Davlatga nisbatan ishonchsizlik: Davlat boshqaruv tizimidagi korrupsiya va noqonuniy faoliyatlarga doir xabarlar fuqarolar orasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Mablag'larning noqonuniy o'zlashtirilishi nafaqat davlat xizmatlarining sifatini tushiradi, balki davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi samarasizligini ham namoyon qiladi. Natijada, aholining davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchi pasayib, siyosiy barqarorlikka xavf tug'ilishi mumkin. Ishonchning yo'qolishi davlatning xalqaro obro'siga ham zarar yetkazib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Jamiyatda adolatsizlik hissi: Mablag'larning noto'g'ri sarflanishi va noqonuniy o'zlashtirilishi jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik hissini kuchaytiradi. Fuqarolar davlat resurslarining teng taqsimlanmasligini ko'rib, o'zlarini kamsitilgan yoki e'tiborsiz qoldirilgan deb his qilishi mumkin. Bunday vaziyatlar jamiyatda norozilik kayfiyatining ortishiga, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga va hattoki

ijtimoiy tartibsizliklarga olib kelishi ehtimoli mavjud. Adolatsizlik tuygʻusi yosh avlodning davlat boshqaruviga boʻlgan munosabatiga ham salbiy taʼsir koʻrsatib, ularning kelajakka boʻlgan ishonchini pasaytiradi.

Sifatning pasayishi va resurslarning samarasizligi: Noqonuniy oʻzlashtirish oqibatida davlat mablagʻlari moʻljallangan maqsadlarda toʻliq va samarali ishlatilmaydi. Misol uchun, qurilish loyihalarida mablagʻlarning oʻzlashtirilishi sifat talablariga javob bermaydigan materiallar yoki xizmatlarning qoʻllanilishiga olib keladi. Natijada, obyektlar qisqa muddatda foydalanishga yaroqsiz holga keladi, bu esa davlat uchun qoʻshimcha xarajatlarni talab qiladi.

Xalqaro miqyosdagi obroʻga salbiy taʼsir: Mablagʻlarning noqonuniy oʻzlashtirilishi haqida xabarlar xalqaro hamjamiyatda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini pasaytiradi. Xalqaro tashkilotlar va donor davlatlar bunday mamlakatlarga nisbatan moliyaviy yordam koʻrsatishni toʻxtatishi yoki cheklashi mumkin. Bu esa davlatning rivojlanish rejaları va strategiyalariga jiddiy toʻsqinlik qiladi.

Budjet mablagʻlarining noqonuniy oʻzlashtirilishi koʻplab jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bu muammoning oldini olish uchun davlat boshqaruvi tizimini shaffoflashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va fuqarolik jamiyatini bu jarayonga faol jalb qilish zarur. Faqat shundagina iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va mamlakat rivojlanishini izchil davom ettirish mumkin boʻladi.

Noqonuniy oʻzlashtirishga qarshi kurash choralarining samaradorligi - Budjet mablagʻlarini noqonuniy oʻzlashtirishga qarshi samarali kurashish uchun bir qator choralar amalga oshirilishi zarur. Bu choralar iqtisodiy, huquqiy va texnologik yondashuvlarni oʻz ichiga oladi: 1. Davlat nazorati va audit tizimini kuchaytirish: Elektron tender tizimlarini joriy etish; Qurilish jarayonlari va davlat buyurtmalarini real vaqt rejimida nazorat qilish; Ichki va tashqi audit mexanizmlarini rivojlantirish. 2. Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish: Qonunchilik bazasini korrupsiyaga qarshi kuchaytirish; Jinoyat sodir etgan shaxslarni qatʼiy javobgarlikka tortish. 3. Xalqaro tajribalarni qoʻllash: Korrupsiyaga qarshi samarali texnologiyalar va mexanizmlarni tatbiq etish; Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish. 4. Jamiyatni jalb qilish: Fuqarolar va jamoat tashkilotlarining davlat mablagʻlarini nazorat qilishda ishtirokini kuchaytirish; Shaffoflikni oshirish uchun davlat organlari faoliyati haqida ochiq axborot berish.

Korrupsiyaga qarshi kurashda innovatsion yondashuvlar – Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kerak. Masalan: Blockchain texnologiyasi orqali davlat buyurtmalarining shaffofligini ta'minlash, sun'iy intellekt tizimlari yordamida moliyaviy hujjatlarni avtomatik tahlil qilish. Qolaversa, xalqaro standartlar asosida ishlash tizimini yo'lga qo'yish kerak ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan standartlarni joriy etish davlat tizimining ishonchliligini oshiradi.

Umuman olganda, budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli zarar yetkazadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat organlari, xususiy sektor va jamiyatning birgalikdagi harakatlari zarur. Shaffoflikni oshirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi qat'iy choralar ko'rish orqali davlat byudjeti samaradorligini oshirish va davlat resurslaridan oqilona foydalanish mumkin. Mazkur yondashuvlar mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va aholining davlat tizimlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Hozirgi kunda budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi jahonning ko'plab davlatlarida dolzarb va murakkab muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu muammo iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazib, davlatning iqtisodiy tizimiga sezilarli darajada zarar keltirmoqda. Bu nafaqat iqtisodiyotning rivojlanishini sekinlashtiradi, balki ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi, davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni susaytiradi va xalqaro maydonda mamlakatning obro'siga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy islohotlar jarayonida budget mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi davlatning resurslarini samarali boshqarishga bo'lgan sa'y-harakatlarga jiddiy to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda ushbu muammo iqtisodiy islohotlar doirasida alohida e'tibor talab qilmoqda. So'nggi yillarda davlat budgeti resurslarini samarali ishlatish, ulardan to'g'ri va shaffof foydalanishni ta'minlash O'zbekiston hukumati oldida turgan ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Chunki budget mablag'larining samarali boshqarilishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon fuqarolarning davlat idoralari bo'lgan ishonchini mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy sharoitlarni chuqur tahlil qilish orqali korrupsiyaga qarshi kurashni yanada samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Jahonning rivojlangan davlatlari ushbu

yo'nalishda qator muvaffaqiyatli tajribalarga ega bo'lib, ularning yutuqlari O'zbekistonda korrupsiya bilan bog'liq muammolarni hal etishda muhim yo'riq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, davlat boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi qattiq qonunchilik choralari tatbiq etish orqali budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga erishish mumkin. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat organlari faoliyatining samaradorligiga bog'liq, balki jamiyatning har bir a'zosining faol ishtirokini talab qiladi. Bu masalada fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va nohukumat tashkilotlarning ham roli juda muhimdir. Ularning faol ishtiroki davlatning budjet mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq holatlarni aniqlash va ularga qarshi samarali choralar ko'rishda yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda budjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishiga qarshi kurashish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki jamiyatda adolat va shaffoflikni mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun xalqaro tajribadan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish va ularni amalda qo'llashni kengaytirish zarur. Shu bilan birga, ushbu sa'y-harakatlar davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi orqali amalga oshirilishi lozim. Faqatgina bunday yondashuv orqali mamlakatni barqaror va adolatli rivojlanish sari yetaklash mumkin bo'ladi.

Xulosa

Sintez metodidagi bunday ish turlari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, mashg'ulot jarayonini bolalar uchun zavqli, qiziqarli eng muhimi o'quv materialini bolalar tomonidan tez va puxta o'zlashtirilishiga asos bo'ladi. Umuman, savodxonlikka o'rgatish jarayonida analiz-sintez usullari tizimi bolaning faol fikrlashini, bilish mustaqilligini ta'minlaydi, bolalarda, ziyraklikni o'stiradi. Savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlarida o'quv-didaktik vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish (taxtali, magnitli, interfaol)doska, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), videoprojektor (ekrani bilan), multimedia, taqdimot (Power Point), didaktik materiallar(rasm, kartochka, plakat, pazllar) kabi ko'rsatma vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun kompyuter video va audio materiallarni qo'llash tavsiya etiladi. Mashg'ulot davomida ilk marta bolalarga yozish bo'yicha vazifalar orqali mashq qilish davomida qo'l barmoqlarini chidamli bo'lishga ko'niktirib boriladi. Tanaffus bilan mashqlar bajarrish amalga oshiriladi chunki bolalar birdaniga ko'p vaqt yozish bilan shug'ullanishganda zerikish va charchash hissi paydo bo'lishi mumkin. Tarbiyalanuvchilarning qo'l va barmoqlarning kuchi: qo'llar va barmoqlar yordamida qarshilikka qarshi kuch ishlatish qobiliyati, qalamning boshqariladigan harakati uchun kerakli mushak kuchini ta'minlaydi. Albatta bu jarayonda qalamni ushlab muhim hisoblanadi. Qalamni qanday ushlab turish samaradorligi, bu yoshga mos qalam harakatini yaratishga imkon beradi. Bu ko'plab ota-onalarni farzandining yozish ko'nikmalarini qanday yaxshilash kerakligi haqida savol tug'diradi. Kuchli yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vaqt kerak va buni amalga oshirish qiyin vazifa bo'lishi mumkin. Tarbiyachilar yozishga o'rgatish jarayonida qiziqarli mashg'ulotlardan tortib kundalik o'qish va yozish mashg'ulotlarigacha, bolalarning yozish ko'nikmalarini qanday yaxshilash bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirishlari lozim. Yozish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradigan faoliyat bu bolalarning so'z boyligini oshirish uchun ta'limiy yondashuvni ta'minlashdir bu yaxshiroq yozish uchun ilk qadam bo'lib, bolalarning kengaytirishga yordam beradi va ularga so'zlardan foydalanishning turli usullarini ko'rsatadi. Bu shuningdek, bu so'zlarni o'z yozuvlarida ishlatishni osonlashtiradi. Yozish muhim amaliy hayotiy ko'nikma hisoblanadi. Ajoyib yozish ko'nikmalarini

rivojlantirish ko'p vaqt va sabr-toqatni talab qilsa-da, bolalar uchun oddiy yozish mashqlari ham qiziqarli amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib aytganda yozishdek murakkab jarayonda tarbiyachi pedagog tarbiyalanuvchilarning yozish qobiliyatini oshirishning usullarini amalda qo'llash va bolalarda o'zlashtirish tarbiyachidan sabr va mehnat talab etadi. Yozish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni uzoq vaqt davom etganligi uchun qunt bilan yondashish muhim hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari
2. Takomillashtirilgan 'Ilk qadam' o'quv dasturi Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent. 2013 yil.
3. Eshbekova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish vazifasini amalga oshirishda o'yinlardan foydalanish. *journal of innovations in social sciences.*: 01 | Jan - 2023 ISSN: 2181- Volume: 03 Issue 2594
4. Eshbekova G. Bolalarni maktabga tayyorlashning yozishga o'rgatish bosqichida psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish masalasi. *Международный научный журнал № 6 (100), часть*
5. Eshbekova G. Tarbiyachining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratining bolalar bilan muloqotni tashkil etish shakllariga ta'siri. *Journal of innovations in social sciences* Volume: 02 Issue: 01 | 2022 ISSN: 2181-2594
6. Teplov B.M. psixologiya va individual farqlar psixofiziologiyasi: tanlangan psixologik ishlar - m.: amaliy psixologiya instituti. voronej: nro "modek", 1998.
7. A.Mambetnazarov. Opportunities for project-based education in educational institutions. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 2(2-3).
8. Mambetnazarov, A. (2021). Opportunities for project-based education in educational institutions. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 2(2-3).
9. Mambetnazarov, A. (2021). Анализ показателей физического развития девочек под влиянием антропогенных нагрузок каракалпакстана. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 2(2-3), 180-181.
10. Mambetnazarov, A. (2021). The features of functional indicators of adolescents in the environmental conditions of the aral sea region. *Журнал*

«Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 2(2-3), 203-2024.

11. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi davlat standarti VM qaror.2020

12. Bobokalonov, M. K., & Khamdamova, D. (2022). USING ARCGIS SOFTWARE TO CREATE A LAND RECLAMATION MAP. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(11), 385-388.

13. M.R.Is'hoqova, M.Z. Fayzullaeva, J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M. Sultonova. "Savodxonlikka o'rgatish" Tarbiyachi kitobi.

O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR

Mamataliyev O'tkir Ashurovich

Termiz muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti akademik litseyi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalardan foydalanish, har bir fan bo'yicha bu soxada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, ilmiy innovatsion ta'lim texnologiyalarning keng joriy etilish orqali ta'limda sifatini yanada oshirishdan iboratligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, metodik dastur, pedagogik amaliyot, pedagogik tajriba, virtual stend.

“Инновацион таълим технологиялари” ўқув модулининг ўқитилаётганлиги педагог кадрларни замонавий инновацион таълим технологияларининг ташкилий, техник ва дидактик имкониятларидан хабардор бўлишлари, таълим амалиётида ўқитишнинг инновацион технологияларидан фойдаланиш, компетентлик сифатлари ва креативлик қобилиятини изчил ривожлантириб бориш кўникма-малакаларини ҳосил қилиш учун шароит яратиш қолмай, касбий фаолиятда улардан самарали фойдаланиш борасидаги малакаларининг мустаҳкамланишини ҳам таъминлайди. Айтиш керакки, “Инновацион таълим технологиялари” ўқув модули олий таълим педагогларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш курсларида тингловчилар томонидан ўзлаштирилаётган касбий билим, кўникма, малака ва компетентлик сифатларини янада ривожлантириш, кенг қўламли илмий-тадқиқотларни олиб бориш, кучли рақобат мавжуд бўлган меҳнат бозорида ўз ўринларини сақлаб қолишларига ёрдам беради. “Инновацион таълим технологиялари” модулининг мақсади: педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш курс тингловчиларини инновацион таълим технологиялари, ўқитишнинг инновацион шакл, метод ва воситалари, педагогик компетентлик сифатлари ҳамда таълим жараёнини ташкил этишга креатив ёндашишга доир билимларини такомиллаштириш асосида улар томонидан инновацион ёндашув, педагогик компетентлик сифатлари ва креатив қобилиятнинг самарали ўзлаштирилиши учун зарур шарт-шароитни яратиш.

“Инновацион таълим технологиялари” модулининг вазифалари:

- инновацион таълим технологияларининг ўзига хосликлари ва қўлланилиш соҳаларини аниқлаштириш;

- тингловчиларда инновацион характерга эга педагогик фаолиятни ташкил этиш;
 - уларда педагогик жараёни самарали ташкил этишда турли инновацион таълим технологиялари: амалий ўйинлар, муаммоли ўқитиш, интерфаол таълим, модулли-кредит тизими, blended learning (аралаш ўқитиш), case study (кейс стади), масофали ўқитиш, маҳорат дарслари, вебинар ва ассесмент технологияларидан ўринли, мақсадли фойдаланиш кўникма-малакаларини ривожлантириш;
 - тингловчиларнинг ўқув лойиҳаларини ишлаб чиқиш, портфолиоларни шакллантириш ва амалиётга татбиқ этиш малакаларини такомиллаштириш;
 - тингловчиларда педагогик компетентлик сифатларини янада ривожлантириш;
- 8
- ОТМ педагогарида ўқув машғулотлари, маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этишга креатив ёндашиш кўникма-малакаларини такомиллаштириш

Ўқув модули доирасида тингловчилар инновацион таълим технологияларининг моҳияти, назарий асослари, самарали шакл, мето ва воситалари билан танишади, касбий фаолиятда педагогик технологияларни самарали, мақсадли қўллаш малакаларига эга бўлади, таълим жараёнини оқилона лойиҳалаштиришга доир тажрибаларини янада бойитади. Шунингдек, тингловчилар педагогик инновацияларни асослаш, яратиш ва амалиётга самарали татбиқ этиш йўлларида хабарор бўлади, инновацион характерга эга муаллифлик дастурларини ишлаб чиқиш малакаларини муваффақиятли ўзлаштиради. Бу эса ўз навбатида ўқитиш жараёнида талабаларнинг фаолликларини таъминлаш, таълим сифатини яхшилаш, самарадорликни оширишда му Uzluksiz ta`lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta`lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta`lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ilm-fanning so`ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma`naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat, va oila oldida o`z burch va javobgarligini his eta oladigan, raqobatdosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish muhim vazifalarni amalga oshirish ko`zda tutilgan Ta`lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mehanizimlarini mutaxassislar quydagicha bayon qilishgan: Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma`ruza. adabiyotlar tavsiya etish. Yangi texnologiya asosida ishlashni hohlovchi pedagoglar jamosini aniqlash. Ular orqali o`qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo`llashdan ko`zda tutilgan maqsadni,

uning mohiyatini yetkazish. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlashni hohlovchi pedagoglar shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy jarayonlar asosida ishlaydi seminar; trening; individual maslaxat berish; ko`rgazmali darslar tashkil etish.

Yangi pedagogik texnologiya asosida talabalarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va taxlil o`tkazish, metodik yordamlar ko`rsatish, ularni hisobotlarini eshitib borish. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o`qtuvchilarning metodika kengashida, pedagogik kengashlarida chiqishini tashkil etish. Yangi pedagogik texnologiya bo`yicha ishlash uchun zarur didaktik va tarqatma materiallar, vositalar xonasini tashkil qilish. Yangi texnologiya bo`yicha ishlashning afzalliklarini, o`quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo`llab-quvvatlanishini oshkor etib boorish. Ilg`or, novator pedagoglardan novator pedagogik jamoani shakllantirish. Yangilanish uzluksizligi, davomiyligini ta`minlash.

Pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan har qanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruriyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muxim ahamiyatiga ega.

Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonida amalga oshiriladigan tashkiliy va metodik tadbirlar orasida tajriba-sinovlarni tashkiliy qilish va o`tkazish muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tajriba-sinov o`tkazishning asil mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo`naltirilgan yangi yo`nalish, mazmun, va xulosalar mavjud. Masalani aniq tasavvur qilishda uchun asosiy tushunchalarning ta`riflarini aniqlab olish lozim. Tajriba-sinov bu- shunday tafakkur metodi bo`lib, uning yordamida tabiiy yoki su`niy tarzda yaratiladigan, nazorat qiladigan, eng muhim tushunchalarni bilish amalda sinab ko`riladi.

Pedagogik tajriba-sinov bu- ilmiy-pedagogik tafakkur metodi bo`lib, pedagogic omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar va metodik yondashuvlar orasidagi sabab oqibatli aloqadorligini aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkoniyatini beradigan tadbirlar.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish uning tizimlarini integratsi-yalashtirish va ular o`rtasidagi eng muhim qonuniy bog`lanishlarni aniqlash.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, uning tizimlarini hisobga olish muhim darajada asos bo`lib hosil qilish ma`nosida muhim qonuniy bog`lanishlarni aniqlash.

Ta'lim-tarbiya muassasalarni faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarga yordam beradi.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, obyektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli. Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Odamning shaxs sifatidagi eng asosiy belgisi – uning individualligi. Individuallik shaxs psixologik hususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi bilan ifodalaniladi. Shaxsga ta'sir qilayotgan barcha omillar uning umri davomida moddiy va ma'naviy dunyoni hamda o'zligini anglashga, ularga javob reaksiyasini namoyon qilishga va axborotlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchanlik hususiyatlari shaxs hislatlarining bir butunligini va o'zaro bog'ligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni uning dinamik tuzilmasini hosil qiladi. Shaxsning harakatlanuvchi kuchlarning va psixologik tuzilishini hamda faollik manbalarini 3 asosiy omil bilan bog'lab o'rganiladi: Tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit. Shaxsga umri davomida tizimli tarzda va uzliksiz maromda beriladigan ta'lim tarbiya. Odamga tug'ma ravishda beriladigan nasliy hususiyatlar. Psixologlar ta'lim–tarbiya jarayonlarining obyektlari va subyektlari hisoblanadigan shaxs xaritasini bir qator elementlarini e'trof etadilar.

Psichologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vocal, artistlik, badiiy, texnik, matematik, adabiy, ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik, axloqiy, huquqiy jihatlarni, tavsifning umumiy xislatlari esa insonparvarlik, vatanparvarlik, soflik, g'ayratlilik, faollik, uyushqoqlik, optimizm, ko'ngilchanlik, kabi individual xususiyatlarni qayd etishgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq, psixologik-pedagogik tashxis xizmatining keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi sodir bo'ladi. Psichologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vokal, adabiy-ilmiy, pedagogik, axloqiy me'yorlar asosida sodir bo'luvchi eng muhim tushunchalar bilan birgalikda anglanadi. Pedagogik texnologiyalardan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimi-ni boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin, yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakillari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda.

Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga hos hususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, innovatsion texnologiyalar orasida o'rni kattadir. Pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan har qanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruriyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muhim ahamiyatiga ega.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Aripov M., Begalov B., Begimqulov Sh., Mamarajabov M.. Axborot texnologiyalari. – T.: Noshir, 2009. – 368 b.
2. Batorowska H. Information culture in the perspective of changes in education. Warszawa, Poland: Wydawnictwo Stowarzyszenia Bibliotekarzy Polskich, 2009. (in Polish).
3. Brainerd S.I. (ed.). Recent Advances in Cognitive-developmental Theory. Progress in Cognitive Development Research. N. Y., 1983. XII. 270 p.
4. Bryant S. The Story of the Internet. – Madrid: Pearson Education Ltd., 2000. – P. 10.
5. Choo C.W., Bergeron P., Detlor B., & Heaton L. (2008). Information culture and information use: An exploratory study of three organisations. *Journal of the American Society for Information Science and Technology*, 59 (5), 792-804.
6. Curry A. & Moore, C. (2003). Assessing information culture: An exploratory model. *International Journal of Information Management*, 23(2), 91-106. Retrieved May 24, 2005, from http://www.sciencedirect.com/science?_ob=ArticleURL&_udi=B6VB4-47XVXXR3&_coverDate=04%2F30%2F2003&_alid=404933805&_rdoc=1&_fmt=&_orig=search&_qd=1&_cdi=5916&_sort=d&view=c&_acct=C000011918&_version=1&_urlVersion=0&_userid=143908&md5=2ea003049eb475235e2f6fa54f0675d2
7. Dymmel S. Kotuła and A.Znajomski. Readership and information culture, theory and practice. Lublin, Poland: Selected Issues, UMCS, 2015. (in Polish).

ЮРАК-ҚОН ТОМИР КАСАЛЛИКЛАРИНИ ЭРТА АНИҚЛАШДА ЗАМОНАВИЙ БИОМАРКЕРЛАРНИНГ РОЛИ

Чориев Шохжаҳон Хабибулло ўғли
Кенжаев Ёдгор Маматқулович

Термиз иқтисодиёт ва сервис университети тиббиёт факультети

Долзарблиги: Ушбу тадқиқот юрак-қон томир касалликларини (ЮҚТК) эрта аниқлашда замонавий биомаркерларнинг (тропонин, БНП, ҳс-СРП) аҳамиятини урганишга қаратилган. 214 нафар бемор юзасида утказилган тадқиқотда муайян биомаркерларнинг моҳияти ва клиник аҳамияти баҳоланди.

Кириш: Юрак-қон томир касалликлари (ЮҚТК) бугунги кунда жаҳон соғлиқининг номутанос соғасидаги муаммолардан бири саналади. Бу касалликлар жидди хавф факторларини келтириб чиқаради ва ерта босғичда аниқланмаган касалликлар келгусида кеч асоратларга олиб келади. Биуса, биомаркерларни жорий қилиш орқали касалликни сохланишига йол ачиш мумкин.

Усуллар: Тадқиқотга 214 нафар бемор жалб килинди. Уларнинг ёши 30–65 орасида булиб, юрак касалликларини аниқлашда биомаркерларнинг аҳамияти таҳлил қилинди. Лаборатория таҳлилларда тропонин, БНП ва ҳс-СРП натижалари коздан кечирилди.

Натижалар: Тадқиқот натижалари жадвал ва диаграмма орқали баён этилган:

Корсаткич	Норма	Беморлардаги ортача қиммат	Ошиш %
Тропонин	<0.03 нг/мл	0.08 нг/мл	72%
БНП	<100 пг/мл	320 пг/мл	65%
ҳс-СРП	<3 мг/Л	10 мг/Л	80%

Муҳокама

Тадқиқот натижалари шуни кузатдики, биомаркерлар ЮҚТК ни эрта аниқлашда самарали. Тропонин юрак зарарларини, БНП юрак гипертрофиясини, ҳс-СРП эса вазоген инфламацияни корсатишини кузатди.

Хулоса

Биомаркерлар ЮҚТК ни эрта аниқлашда муҳим аҳамиятга эга. Тадқиқот натижалари фаний ва клиник даволаш асосида фойдаланилиши мумкин.

NUTQIY MULOQOT DARSLARINI TASHKIL QILISH TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamarajabova Zulfiya Narbayevna

Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f. d.

Abdullayeva Muborakxon Azizxon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktabda nutqiy muloqot darslarini tashkil qilish mazmuni yoritiladi. Mazkur maqolada nutqiy muloqot darslarini tashkil qilish texnologiyalarini takomillashtirish tahlili aamлга oshirilgan.

Kalit soʻzlar: Nutqiy muloqot darslari, texnologiyalari, pedagogik tizim, oʻquv fanlari, nutqiy bilish, anglash, qayta tasvirlash, psixofizik mexanizmlari

Аннотация: В статье рассматривается содержание организации занятий по речевой коммуникации в специализированной школе. В статье анализируется совершенствование технологий организации уроков речевого общения.

Ключевые слова: Уроки речевого общения, технологии, педагогическая система, образовательные науки, речевое познание, понимание, переосмысление, психофизические механизмы.

Abstract: The article examines the content of organizing speech communication classes in a specialized school. The article analyzes the improvement of technologies for organizing speech communication lessons.

Keywords: Speech communication lessons, technologies, pedagogical system, educational sciences, speech cognition, understanding, rethinking, psychophysical mechanisms.

Har bir pedagogik tizim faqatgina nazariy asos va undan kelib chiquvchi oʻqitishdan iborat boʻlibgina qolmasdan, oʻz ichiga oʻqitish shart-sharoitlarini va shakllarini tashkil qilishni ham oladi. Surdopedagogikaning barcha maʼlum boʻlgan tizimlaridan birinchi bosqichi taʼlimning turli bosqichlariga ajratilgan maxsus oʻqitish uchun berilgan barcha materiallar bosqichlararo taqsimlangan va izchillik bilan bosqichma-bosqich tuzishni murakkablashgan, hajmi ortgan. Bir bosqich maʼlum nutqiy qoʻnikmalarni hosil qilishni talab qilsa, keyingi bosqich undanda murakkabroq nutqiy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Oʻqitishning izchil va bosqichma-bosqichligi bolaga oʻqitishning faqatgina asoslarini egallashga yoki maktab oʻqitish kursining toʻliq oʻtish imkoniyatini berar edi. Oxirgisi faqat aqliy qobiliyat, oilada tarbiyalanish sharoiti, eshitishni buzilishi sabab va vaqti bilan bogʻlanibgina

qolmasdan, o'quvchi oilasini moddiy axvoliga ham bog'liq edi, chunki o'qitish moddiy mablag'ga bog'liq bo'lgan. Shu bois, qadimda o'qitishning davomiyligi barcha karlar uchun bir xil bo'lmaga[1]. Zamonaviy karlar maktabi o'quvchilarining asosiy qismi uchun 11 yillik ta'lim tashkil qilib, bu ta'lim jarayoni o'rta maktabning 8 yillik ta'lim dasturini o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni bosqichlilikiga umumiy bilim hajmi va unga xos nutqiy rivojlanish darajasidan tashqari bolaning yosh davrlariga xos psixologik imkoniyatlari omili ham ta'sir qiladi. Tilni o'zlashtirish va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishning ba'zi talablari faqat katta yoshdagi o'quvchilar ixtiyoriy jarayonlarni ma'lum darajasidagi rivojidadagina bajara olishsa, ba'zilar esa boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bajariladi. O'qitishni alohida bosqichlarga bo'lishning uchinchi omili – kar bolalarni nutqning har xil shakl va turlarini o'zlashtira olishining real imkoniyatlaridir. Mazkur omil o'qitishning har bir bosqichida o'zlashtira olish, qabul qilish va ishlata olish qiyin-osonlik darajasini e'tiborga olgan holda nutq shakl larini har xil birikmalar tarzida o'qitib borishni hamda bu shakl va turlardan yetakchisini, ko'makchisini belgilashga ta'sir qiladi.

Nutqiy muloqot darslarini tashkil qilishda tizimlilik ko'p darajada tilning tabiatiga ham bog'liq. Tilning ba'zi munosabatlari, qonuniyatlari, aloqalari o'qitishdan avval hayotda o'zlashtirilgan bo'lib, amaliyotda murakkablashtiriladi. Til tizimining boshqa xususiyatlari maxsus kuzatuvni, tahlilni, umumlashtirishni talab etadi va qandaydir amaliy asos zaminida o'qitilishi lozim. Ularning murakkabroq turlari keyingi bosqichda tanishtiriladi. Masalan, sintagmatik munosabatlar ko'proq tilga taaluqli bo'lsa, paragmatik munosabatlar ko'proq til tizimiga xosdir. Ularni bir bosqichda o'zlashtira olish mumkin emas. Shuning uchun tilning tizimli tashkillashtirishni to'liq uzlashtirish faqatgina maktab o'quv kursining barcha bosqichlarida o'qitishdagina amalga oshirilishi mumkin.

Tizimlilik yoki bosqichma-bosqichlilik kabi tilga o'qitishni tashkillashtirishni tomonlari karlar maktabida didaktik, psixofizik va lingvistik omillar tomonidan aniqlanadi. Vazifani bajarishning o'zgaras sharti-bir bosqichdan keyingichiga o'tishdagi uzviylikdir. Kar bolalarni maktabda o'qitish kursi to'rt asosiy bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich tayyorlov sinfi bo'lib, u maktabga tayyorlovdan o'tmagan bolalar uchun mo'ljallangan. Bu davr bolani bir yoshdan 4-5 yoshgacha davom etadi. Bunda katta e'tibor ko'pchilik kar bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnashi muddatiga va har bir bolani tarbiyalashning konkret shart-sharoitlariga qaratiladi. O'qitishning ikkinchi bosqichi – boshlang'ich sinflar bo'lib, ularda 7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitiladi. Uchinchi bosqich – o'rta sinflar bo'lib, kar bolalar maktabining V-VII sinflarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda 11-13 yoshdagi bolalar o'qitiladi. To'rtinchi bosqich – katta sinflar bo'lib, karlar

maktabining 8-11 sinflarini qamrab oladi. Mazkur bosqichda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitiladi.

Ushbu bosqichlar bir-biridan vazifalari, o'quv fanlari majmuasi o'quvchilarning nutqini o'stirish bo'yicha ishlarning asosiy yo'nalishlari bilan farqlanadi. Tayyorlov bosqichining asosiy vazifasi bolalarga muloqot uchun zarur nutqiy materialni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. Birlamchi aloqa o'rnatish va nutqda orttirilgan tajribani bilish faoliyatini natijalarini aks ettirish uchun zarur undov, so'roq va gaplar shaklidagi nutqiy material tilga o'qitishning mazmunini tashkil qiladi. Nutqiy muloqot darslarini tashkil qilish masalalarini kompleks tarzda hal qiluvchi o'quv fani dasturida uch qismga ajratilib ko'rsatilgan: Daktil nutqga o'rgatish; Og'zaki nutqga o'rgatish; Savodga o'rgatish.

Nutqiy muloqot darslarini tashkil qilish – nutqiy bilish, anglash, qayta tasvirlash va psixofizik mexanizmlarini shakllantirishga imkon yaratish demakdir. Maxsus o'qitishning birinchi kunlaridanoq bolalarga ma'lum predmetli vaziyatdagi ularga qaratilgan nutqga ta'sirlanishni, predmetli harakatlarni tuzilishiga qarab ulardan nima talab qilinayotganini payqash shartlari qo'yiladi. Bolalar o'qituvchi yoki tarbiyachining predmetli va nutqiy harakatlariga kattalar tomonidan berilgan nutqiy namuna asosida taqlid qilishga o'rganadilar. Talaffuzga o'rgatish va saqlangan eshitish qoldig'ini rivojlantirish mashg'ulotlari jarayonida idrokni rivojlantirish ishlari olib boriladi. Nutq materiallarini idrok etish va qayta bayon etish malakasini rivojini tezlashtirish maqsadida daktilologiyadan foydalaniladi. Maktabgacha tayyorlovga ega bo'lmagan bolalarni tilga o'qitish jarayonida daktilologiya dastlabki nutq shakli bo'ladi. Unga o'rgatish og'zaki nutqga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi[3].

Amaliy faoliyatda o'yinda darsni tashkillashtirish jarayonida turli xil kuzatuvlarda muloqot qilish mazkur bosqichdagi bolalarning butun o'quv faoliyatini tashkil qiladi. Chunki, nutqiy qobiliyat faqat muloqotda paydo bo'lib, muloqotdagina rivojlanadi. Nutqiy qobiliyat faqatgina nutqiy idrok qilishda emas, nutqni qo'llashda ham rivojlanadi. Shuning uchun bolani fonetik qiyinchiliklariga qaramay, o'qitish boshidanoq butun materialni so'zlash hamda har bir so'zni ham og'zaki, ham daktil holda aytishga o'rgatiladi. Murakkab tovushlarni talaffuzida bola tovushni fonemalar qisqartirilgan sistemasi talablariga muvofiq o'sha tovushga yaqin qilib aytishi mumkin. Boshidanoq yetakchi idrok o'rnini eshituv-ko'ruv idroki egallaydi. Tanish vaziyatlarda qo'llaniladigan so'zlashuv nutqining bir qismi bolalarga eshittiriladi [2].

Ushbu bosqichda bolalar nutqini rivojlantirish ishlarining ikkinchi yo'nalishi – nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishdir. Bolalar daktillashtirish, eshituv-ko'ruv idroki, so'zlash, o'qish, yozuv ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Biroq o'qitishni asosiy vazifasi – kommunikativ akt natijalari: buyurilgan topshiriqni bajrish, murojaatni,

iltimosni, istakni, savolni ifodalaydi olish, murojaat qilingandagi nutqni tushunish bo'lgan tufayli, nutq faoliyatining har bir shaklini texnik tomoni o'qitishning maqsadi bo'la olmaydi. Nutqiy faoliyat motivlari ishga doir, shaxsiy va xususan nutqiydir[3]. Tayyorlov bosqichida bolalar nutqiy vositalarni ma'lum natijalarga erishishni, o'qituvchi yoki do'sti bilan bir-birini tushunishni istaganligi uchun foydalaniladi. Biroq buning uchun nutqiy vositalarni o'zlashtirish so'z va gaplarni o'rganish, yod olish hamda to'g'ri talaffuz qilish har bir bola uchun maqsad bo'lib qolmaydi. Mazkur nutqga ijobiy munosabatda bo'lish motivini nutqiy vositalarni to'plash jarayonini o'ziga xos mazmun bilan boyitish, nutqiy muloqotni maxsus emotsional munosabatlar bilan jo'r qilish kabilar bilan maxsus rivojlantirish darkor.

Tayyorlov bosqichida o'qitishning metodik usullari bolalarning yosh xususiyatlariga, ishlatilayotgan nutq vositalari hajmiga, unq o'stirish ishlarining yo'nalishiga mos keladi. Bu avvalombo dars jarayonida paydo bo'ladigan tabiiy vaziyatlardan, individual mashg'ulotlardan, darsdan tashqari mashg'ulotlardan foydalanishda, mustaqil faoliyatni, momentlarini bajarishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi bolalarda xissiyotlar uyg'otuvchi, muloqotga undovchi maxsus vaziyatlar tug'diradi. Bir xil vaziyatlarni muntazam takrorlanishi bolalarni kelgusi nutqiy mashqlariga tayyorlab turadi[4]. Mazkur bosqichda didaktik o'yin va mashqlar, darsdan tashqari vaqtlarda roli o'inlar bolalar bilan ishlashning katta qismini egallagan[5]. Asosiy yo'li – amaliy faoliyatlar jarayonida nutqni o'stirishdir. Bosqich tavsifi yakunida shuni aytib o'tish joizki, bosqich tuzilmasining biron yo'nalishi yoki nutqiy material faqat bu bosqichgagina xos bo'lib qolmay, aksincha keyingi bosqichlarning tuzilmasi va metodikalarida aks etishi, tayyorlovda shakllantirilgan malakalar esa real-haqqoniy kommunikativ ijtimoiy xulq-atvorga asos solishi lozim.

Yuqorida qayd qilingan uch yo'nalishlardan asosiysi nutq faoliyati turlarini shakllantirishi bo'lib, bu faoliyatlar ichida eng asosiylari o'qish va yozishdir. Biroq, birinchi yo'nalish bo'lish – nutqiy qobiliyatni rivojlantirish yo'nalishi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, lekin namoyon bo'lish mexanizmi bir muncha o'zgartiriladi. 7-11 yoshli bolalar faqatgina kattalarning nutqiy xarakterlariga taqlid qilib qolmay, nutqiy namunalardan foydalangan holda tayyor jummalarni o'zlashtira oladilar. Nutqiy boylikning yetarli darajasida ular so'z shakllari va jumlar qrilmasidagi analogiya (o'xshashlik)larni aniqlash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bolalar ularda mavjud so'z va jumlar xazinasidan vaziyatga mosrog'ini tanlay olishlari hamda tilning variantivligini tushunishlari mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'qiyotgan kar o'quvchilar tanish so'zlarning o'zagiga turli xil so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan yangi so'zlar hosil qilishga o'rganadilar.

Adabiyotlar

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish.. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref...– Toshkent:TDPU.2020
2. Mamarajabova Z.N.Ona tili o'qitish maxsus metodikasi -T.,2020.
3. Mamarajabova Z.N.Surdopedagogika -T.,2019.
4. Малофеев Н. Н. Современный этап в развитии специального образования в России: Результаты исследования как основа для построения программы развития // Дефектология. — 1997. — № 4. — С. 3—15.
5. Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом. — М., 1996. — 180 с.
6. Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012.-34-35.r.

**ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TALLAFUZ MALAKASINI
SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA DIDAKTIK TAMOYILLARNI
QO'LLASH SAMARASI**

Mamarajabova Zulfiya Narbayevna

Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f. d.

Sobirova Xayotxon Shavkatovna

Nizomiy nomidagi TDPU magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllantirish jarayonida didaktik tamoyillarni qo'llash mazmuni yoritilgan. Mazkur maqolada Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllantirish jarayonida didaktik tamoyillarni qo'llash samarasi tahlili berilgan.

Tayanch so'zlar: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, tallafuz malakasi, didaktik tamoyillari, Ilmiylik tamoyili, onglik va ijodiy faollik tamoyili. ko'rgazmalilik tamoyili, Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili, muntazamlilik, izchillilik tamoyili, yakka yondashish tamoyili, korreksion yo'nalganlik tamoyili

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание использования дидактических принципов в процессе формирования произносительных навыков у детей с нарушением слуха. В данной статье дается анализ эффективности использования дидактических принципов в процессе формирования произносительных навыков у детей с нарушением слуха.

Ключевые слова: слабослышащие дети, произношения, дидактические принципы, научный принцип, принцип сознательности и творческой деятельности. принцип доказательности, принцип тщательного усвоения знаний, принцип регулярности, принцип последовательности, принцип индивидуального подхода, принцип коррекционной направленности

Abstract: This article examines the content of the use of didactic principles in the process of forming pronunciation skills in children with hearing impairments. This article provides an analysis of the effectiveness of using didactic principles in the process of forming pronunciation skills in children with hearing impairments.

Key words: hearing-impaired children, pronunciation, didactic principles, scientific principle, principle of consciousness and creative activity. principle of evidence, principle of careful acquisition of knowledge, principle of regularity, principle of consistency, principle of individual approach, principle of correctional focus

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllantirish jarayonida umumiy pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarliklik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

Ilmiylik tamoyili. Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak. O'quvchilarning idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o'quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida kengayib boradi. O'quv materialining ilmiyliligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarni amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi[3]. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi. O'qitishda nazariy bilimlar o'quvchilarni tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarni nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin. O'quvchilarning jonli tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvga, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini, gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv-tajriba maydonchasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshiriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili. O'quvchilarning bilimini ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o'quvchilarning

o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarini; o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini; o'qish faoliyatini ijodiy xarakterda bo'lishini; bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o'qituvchiga taalluqlidir[2]. U o'quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallashda onglilik mavjud bo'lsa, o'quvchilarda ijodiy faollik shakllanishi ijobiy samara beradi.

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili. Ko'rgazmalilik qoidalaridan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, muhimdir. Chunki kichik yoshdagi maktab o'quvchilar ko'rganlarida hosil qilgan xususiy taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil bo'lishiga yordam beruvchi to'la qimmatli bilimlar olishlari kerak.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil olingan bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalari o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq[1]. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak.

O'qitishda muntazamlilik va izchillilik tamoyili. Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jism va hodisalarini aks ettiruvchi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy ob'ektlar bilan, keyin esa murakkabrog'i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin. Bu bilan o'qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi.

O'qitishning muntazamliligi, ya'ni tizimlilik bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog'lanishning xilma-xil shakllari amalga oshirilishini, jumladan, nazariy bilimlarini kuzatishlar va bilib olishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar bilan; atrofdan hayot va qurilish amaliyoti bilan; mehnat ta'limi va ijtimoiy-foydali mehnat bilan; maktaboldi uchastkasidagi ish va unumli mehnat bilan bog'lanishini nazarda tutadi.

Yakka yondashish tamoyili. O'rta ta'lim tizimini qayta qurish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin[1]. U rivojlanish darajasi, bilim zahirasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili. Korreksion yo'nalganlik tamoyili bolaning sog'lomligiga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator imkoniyatlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog'lom miyaga ega bo'lib, ko'rgazma-harakatli va ko'rgazma-obrazli darajada atrof dunyoni aks ettirib anglay oladi. Ifodali harakatlar tizimini – imo-ishorali nutqni egallab, muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining qo'rinadigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi – labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchiniig faolligiga bog'liq[4]. Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni ehtimollashda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo'ladi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, predmetli-amaliy o'qitish fanlari kiritilgan. Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib o'qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Korreksion yo'nalganlik tamoyili og'zaki metodlar bilan birgalikda ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Fan asoslarini va soʻzlashuv nutqni oʻzlashtirish jarayonining birligi tamoyili. Umumtaʼlim maktab oʻquvchilari fan asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida oʻzlashtirib olsalar, kar oʻquvchilarda esa fan asoslarini va soʻzlashuv nutqni egallash jarayonlari oʻzaro aloqadordir. Lugʻat zahirasini boyitish va grammatik koʻrilishini shakllantirish karga fan asoslarini egallash jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallash oʻquvchilar lugʻatini yanada boyitib, ogʻzaki nutqni rivojlantiradi[5]. Kar bolalar maktabining dasturlarida oʻquv fani boʻyicha dastur mazmunini oʻzlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojlantirish ishlari zarurligi maxsus taʼkidlab oʻtilgan.

Fan asoslari va ogʻzaki nutqni oʻzlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlangʻich sinf oʻqituvchisi va fan oʻqituvchisidan kar oʻquvchilar nutqining barcha tomonlarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyalashni talab etadi. Bu, oʻqituvchidan sinfning va har bir oʻquvchining nutq imkoniyatlarini bilishni, oʻquvchining nutqiga yakka ish mazmunini eʼtiborga olgan holda talablar qoʻyishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, fan oʻqituvchisi oʻz fani boʻyicha atamaologiyani oʻzlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni oʻrganishda toʻplagan lugʻatini faollashtirishni amalga oshiradi. Oʻquvchilarni sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi soʻzlardan faol mashq qildirish mumkin. Oʻqituvchi oʻquvchilarda bogʻlangan nutqning ogʻzaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Adabiyotlar

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy taʼlim jarayonida zaif eshituvchi oʻquvchilar nutqini rivojlantirish.. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref...– Toshkent:TDPU.2020
2. Mamarajabova Z.N.Surdopedagogika -T.,2019.
3. Малофеев Н. Н. Современный этап в развитии специального образования в России: Результаты исследования как основа для построения программы развития // Дефектология. — 2017. — № 4. — С. 3—15.
4. Назарова Н.М. Образование человека с особыми образовательными потребностями: социальный заказ и системные риски //Педагогический вестник.- №11 (542-543) 1-30 ноября.- 2012.- С. 12-13.

5. Шматко Н. Д. Инновационные формы воспитания и обучения детей с нарушенным слухом / Н.Д. Шматко // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. – 2019. – № 6. – С. 16-25.

**STOMATALOGIYADA FIZIOTERAPIYANING QO'LLANILISHI.
KO'RSATMALAR VA QARSHI KO'RSATMALAR****Allamurodova Baxtigul Boymurodovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti

Email – allamurodovabaxtigul4@gmail.com**Saidov Jasur Baxtiyorovich**Email – jasur.saidov.8778@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada stomatologiyada fizioterapiyaning qo'llanilishiga oid ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar haqida so'z boradi.

Fizioterapiya - bu fizioterapevtlar tomonidan bemorlarning hayoti davomida tananing maksimal harakat erkinligini va funkcionalligini rivojlantirish, saqlash va tiklash maqsadida ko'rsatiladigan xizmatlardir. Fizioterapiya xizmatlari qarilik oqibatida, shikastlanishlarda, og'riqlarda, turli xil kasalliklarda, buzilish, holat yoki atrof-muhit omillari natijasida tananing funkcionalligi va harakatchanligi buzilgan hollarda, to'liq funktsional harakat sog'liqning eng muhim omili ekanligini tushungan holda taqdim etilad. Fizioterapiyaning maqsadi bemorning tanasiga ta'sir qilishning eksperimental jismoniy usullaridan foydalangan holda har qanday kasallikni davolashdir.

Kalit so'zlar : fizioterapiya, PT, CT, MRI, RCIG, TMD, TMJ, LLLT

Kirish qismi. Ayrim holatlarda dori vositalari bilan davolanish, albatta, oqlanadi, ammo bu istalmagan va kutilmagan yomon ta'sirlar ehtimolini oshiradi. Fizioterapiya odatda xavfsiz va kam yon ta'sirga ega, bu qisman bemorlar orasida uning yuqori mashhurligini tushuntiradi; uning kamchiligi shundaki, u ko'pincha kasalliklarni davolashda yordam bermaydi. Jarrohlik odatda davolash jarayonida oxirgi chora hisoblanadi. Fizioterapiya jarrohlik bilan solishtirganda shikastlanmagan, bu ham bemorlar uchun jozibador

Asosiy qism. Jismoniy terapiya insonning kundalik hayotida harakat qilish va funktsional faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini cheklaydigan kasalliklar yoki jarohatlarni ko'rib chiqadi. PTlar tashxis qo'yish va boshqaruv rejasini tuzish uchun shaxsning tarixi va fizik tekshiruvidan foydalanadi va kerak bo'lganda rentgen nurlari, CT-skanerlash yoki MRI topilmalari kabi laboratoriya va tasviriy tadqiqotlar natijalarini o'z ichiga oladi. Jismoniy terapevtlar umumiy tayanch-harakat, asab va

o'pka kasalliklarini tashxislash va boshqarish uchun sonografiyadan foydalanishlari mumkin . Elektrodiagnostik testlar (masalan, elektromiyogramlar va nervlarni o'tkazish tezligini tekshirish) ham qo'llanilishi mumkin. Gippokrat va keyinchalik Galen kabi shifokorlar eramizdan avvalgi 460-yillarda odamlarni davolash uchun massaj , qo'lda terapiya usullari va gidroterapiyani qo'llab-quvvatlagan fizioterapiyaning birinchi amaliyotchilari bo'lishgan . O'n sakkizinchi asrda ortopediya rivojlanganidan so'ng , gimnastika kabi mashinalar gut va shunga o'xshash kasalliklarni bo'g'inlarni muntazam ravishda mashq qilish orqali davolash uchun ishlab chiqilgan bo'lib , fizika terapiyasining keyingi rivojlanishiga o'xshash. Professional guruh sifatida haqiqiy fizioterapiyaning dastlabki hujjatlashtirilgan kelib chiqishi 1813 yilda manipulyatsiya va mashqlar uchun Qirollik Markaziy Gimnastika Institutini (RCIG) asos solgan "Shvetsiya gimnastikasining otasi" Per Xenrik Lingga borib taqaladi . 2014 yilgacha fizioterapevt uchun shvedcha so'z sjukgymnast = kasal bo'lganlar uchun gimnastika bilan shug'ullanadigan kishi edi, lekin keyinchalik unvon fyzioterapeut (fizioterapevt) ga o'zgartirildi, bu so'z boshqa Skandinaviya mamlakatlarida qo'llaniladi. 1887 yilda PTLar Shvetsiya Sog'liqni saqlash va farovonlik milliy kengashi tomonidan rasmiy ro'yxatga olingan. Tez orada boshqa davlatlar ham ergashdilar. 1894 yilda Buyuk Britaniyada to'rtta hamshira Fizioterapiya Chartered Jamiyatini tuzdilar . 1913-yilda Yangi Zelandiyadagi Otago universitetida fizioterapiya maktabi, va Portlend, Oregon shtatidagi Amerika Qo'shma Shtatlari 1914 Reed kolleji "qayta tiklash yordamchilari" ni tugatgan. Kasbning paydo bo'lishidan beri o'murtqa manipulyativ terapiya jismoniy terapevt amaliyotining tarkibiy qismi bo'lib kelgan.

2008 yilga kelib saraton kasalligini davolashda magnit terapiyasining zararsizligi va foydasizligi aniqlandi .

Lazer terapiyasida kam energiyadantopilgan yagona ta'sir to'qimalarning ozgina isishidir, buning natijasida og'riqning qisqa muddatli qisqarishi kuzatiladi .

